

SAMARQAND DAVLAT TIBIYOT UNIVERSITETI

SAMIEV ASLIDDIN SAYITOVICH

***BEL SOHASI SPONDILOGEN RADIKULOPATIYALARI
ETIOPATOGENEZI, KLINIK KECHISHI VA
DAVOLASHNING ZAMONAVIY TALQINI***

MONOGRAFIYA

SAMARQAND - 2024

MUNDARIJA

Kirish	5
1.1. Bel sohasi spondilogen radikulopatiyalari klinik ko‘rinishlari va tarqalishining zamonaviy holati	7
1.2. Bel sohasi radikulopatiyasi bilan og‘rigan bemorlarning tibbiy reabilitatsiyasi	19
Tekshiruv usullari	28
2.1. Klinik tekshirish usullari	
2.2. Paraklinik va instrumental (rentgenografiya, ENMG, KT, MRT) tekshirish usullari.....	33
2.3. Klinik izlanshlar.....	38
 Bel sohasi spondilogen radikulopatiyalarining nevrologik xususiyatlari	40
3.1. Klinik material tavsifi	40
3.2. Tekshiruvdan o‘tkazilgan spondilogen radikulopatiyalı bemorlar guruhlarida klinik neyrovizualizatsion fenomenlar tahlili.....	46
Reabilitatsiya usullari va bosqichlari	51
4.1. Medikamentoz, fizioterapevtik va refleksoterapevtik reabilitatsiya usullari	51
4.2. Bemorlar reabilitatsiyasi algoritmi	65
Xotima	70
Xulosalar.....	83
Amaliy takliflar	84
Adabiyotlar ro‘yxati	100

ShARTLI QISQARTMALAR RO'YXATI

BPQO	- belning pastki qismidagi og'riqlar
VASh	- vizual-analogli shkala
HB	- harakat birligi
KT	- kompyuter tomografiyasi
UD	- umurtqalararo disk
MRT	- magnitli-rezonans tomografiyasi
MFOS	- miofassial og'riqli sindrom
NYaQV	- nostroidli yallig'lanishga qarshi vositalar
UO	-umurtqalar osteoxondrozi
BDR	-bel-dumg'aza radikulopatiyasi
TEHB	- ta'sir etuvchi harakat birligi
PF	- potensial fibrillyatsiyasi
IO'Taff	- sezgi tolalaridagi impulslar o'tkazish tezligi
IO'Teff	- harakat tolalaridagi impulslar o'tkazish tezligi
QTT	- qo'zg'aluvchanlikni tarqalish tezligi
SOG	- siklooksigenaza
ENMG	- elektroneyromiografiya
Msh	-Modic changes

KIRISH

Butun jaxon sog'likni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra (Global Burden of Disease Study) bel soxasidagi og'riq xozirgi vaqtda mexnatga layoqatsizlik yoshi bo'yicha birinchi o'rinni egallab turibdi. Bel sohasi radikulopatiyalari, ya'ni umurtqaning bel-dumg'aza sohasi turli xil zararlanishi oqibatida bel sohasida og'riqlar bilan namoyon bo'lishi umumtibbiy amaliyotda va ambulator nevrologiyada juda ko'p uchraydigan patologik holatlardan biridir. [7,8,13,27,61]. Dorsopatiyalar dunyo bo'yicha turli populyatsiyalar ichida bir xil miqdorda uchrab kelmoqda. Ayni vaqtda, bel sohasidagi og'riqlar zamonaviy tibbiyotning tarmoqlararo muammo deb sanalmoqda. [1, 3, 5, 7, 9, 14, 62, 87]. Yetuk yoshdagi kishilar ichida dorsopatiyalarning tarqalishi oxirgi o'n yillar ichida ikki barobarga oshdi va bu axolining o'rtacha yashash davri va qarishining ortgani bilan bog'liqdir [3,6, 8,27,54]. Kasallik patogenezining murakkabligi, katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etishi sababli, nevrolog, neyroxirurg va travmatolog-ortoped tayyorlashni taqozo etmoqda [4,10,31,33,34,51,71, 68, 89].

Mazkur patologiya kasallik strukturasida ko'pgina xajmga ega bo'lib, muommoning naqadar dolzarbligini ko'rsatib beradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aholining aksariyat qismi, hayotida bir marotaba bo'lsada, spondilogen-radikulyar potologiya belgilari bilan murojaat qilishadi. Periferik asab tizimi kasalliklari ichida bel umurtqalari osteoxondrozining nevrologik namoyon bo'lishi turli mualliflar ma'lumotiga ko'ra 67%dan 95% ni tashkil etmoqda [10, 16, 19, 22, 50, 57,60, 88,104, 122, 126, 132, 158].

Bel umurtqasi osteoxondrozining nevrologik namoyon bo'lishi ko'proq ijtimoiy-aktiv yoshdagi kishilarda mehnatga layoqatsizlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi [4, 27, 39, 45, 68, 84, 92, 97, 150, 200].

Bel soxasidagi ko'p uchraydigan sabablariga spondiloartrozlar, spondilyozlar, osteoxondroz, protruziyalar va disk churrasi, stenozlovchi jarayonlar, xamda asseptik spondilodissitlar xisoblanmoqda. Ayrim bemorlarda o'tkazilgan MRT tekshiruvlarida umurtqa suyak to'qimasida va ikkala yonma-yon umurtqalarni urab turuvchi plastinlardagi patologik o'zgarishli ko'rinishdagi

asseptik spondilodissit aniqlanmoqda [1,7]. M. Modic va xammualiflar 1988 y. bu o'zgarishlarni uch tipga kiritib klassifikatsiyalagan, ulardan xar biri MRTdagi o'ziga xos signallar bilan xarakterlanadi [14]. Bu oxirgi spondilopatiyalar Modic changes (Msh) deb nomlangan. Msh-bu suyak to'qimasida va ikkala yonma-yon umurtqalarni urab turuvchi plastinlardagi suyaklarning destruksiyasiz zararlanishini MRT da aniqlanishi bilan namoyon bo'ladi.

V.K. Velitchenko (2012 y.)ning ta'kidlashicha umurtqa pog'onasi zararlanishi orasida uning degenerativ-distrofik kasalliklari tarqalishiga ko'ra mamlakati aholisining mazkur patologiya bilan kasallanish ko'rsatkichi 8%dan 12%gachani tashkil etgan bo'lib, bu alohida ahamiyatga ega ekanligi ko'zga tutilgan.

Odatda har doim ko'pchilik davo maskanlarida samarali statsionar davo muammosiga ko'proq ahamiyat beriladi va keyingi kompleks rehabilitatsiya chora-tadbirlari nazardan chetda qoladi.

Ma'lumki, butun dunyoda vertebronevrologik kasalliklar vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikning asosiy sababi bo'lmoqda. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra Yer sharining 40%dan 80%gacha aholisi umurtqa pog'onasi sohasida og'riqlardan aziyat chekadi va xar bir kishida xayotida bir marta bo'lsa ham dorsalgiya kuzatiladi. Bu sog'liqni saqlashning poliklinika tarmog'iga tibbiy yordam uchun murojaatlar soni bo'yicha ikkinchi o'rinni egallovchi sababdir [4, 14, 17, 34, 52, 55, 72, 78, 91, 115, 162, 168,178].

Rossiya va boshqa mamlakatlar statistik tahlillari natijasiga ko'ra umurtqa pog'onasi bel-dumg'aza sohasi patologiyasi keng tarqalgan bo'lib, umumiy kasallanishning 30%ini, nerv sistemasi kasalliklarining 20-30% ini va periferik nerv sistemasi kasalliklarining 80%dan ortig'ini tashkil etadi [2, 5, 26, 27, 44, 49, 77, 145, 212]. Bel umurtqalari osteoxondrozining nevrologik namoyon bo'lishi muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'p. Lekin ushbu muammoning ko'p jabhalari nevrologiyada oxirigacha yechilmasdan va dolzarbligicha kolmokda.

Vaqtinchalik va ayrim hollarda doimiy mehnatga layoqatsizlik ko'rsatkichlarining yuqoriligi yangi davolash tadbirlarini izlash lozimligi hamda kasallik

patogenezi va klinikasida ko'pgina yechilmagan masalalar mavjudligini ko'rsatadi [12, 53, 36, 82, 133, 187]. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik ko'rsatkichlari tahlil qilinganda har 100 ishchining 5-23 tasida mehnatga layoqatsizlik sababi bel umurtqalari osteoxondrozi bo'lgan va uning davomiyligi o'rtacha 32-101 kunni tashkil etgan [27,32,48,68,78,81,104].

Umurtqa pog'onasining degenerativ-distrofik kasalliklari va spondilogen jarohatlar keng tarqalganligi davoning statsionar bosqichida hamda ambulator-reabilitatsion bosqichlarida yangi maqsadli davolash usullari ustida izlanishlar o'tkazish dolzarbligini isbotlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, vertebrologiyada reabilitatsiya yunalishi rivojlanishning dastlabki bosqichida bo'lib, ilmiy asoslangan tibbiy texnologiyalarni yaratish, davolash samaradorligini oshirish uchun tibbiy-ijtimoiy yo'riqnomalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etilishini talab qiladi.

1.1. Bel sohasi spondilogen radikulopatiyalari klinik ko'rinishlari va tarqalishlarining zamonaviy holati

Umurtqa pog'onasining degenerativ-distrofik kasalliklarida asosiy nevrologik sindromlardan biri bu og'riq hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra shifokorga murojaatlarning 40%ni og'riq sindromi tashkil qiladi [55, 58, 61, 68, 71, 84, 89,90,108, 122, 170].

Bel sohasidagi og'riq nevrologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Har yili mamlakatning katta yoshdagi aholisidan 15-25 foizi beldagi og'riq tufayli yordam so'rab tibbiy muassasalarga murojaat qiladilar. Bel sohasidagi og'riq 30 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan aholi o'rtasida mehnatga layoqatsizlikning asosiy sabablardan biri hisoblanadi [25, 39, 53, 74,104, 114].

Og'riq sindromlari orasida beldagi og'riq eng ko'p uchaydi. Bel sohasidagi o'tkir og'riqlarning turli ko'rinishlari aholi o'rtasida 80-100% holatlarda uchraydi. Katta yoshli aholining 20%ida bel soxasida 3 kundan ortiq davom etuvchi davriy residivlanuvchi og'riqlar kuzatiladi [17, 46, 48, 68, 114, 128, 146, 167].

Hozirgi vaqtda "urbanizatsiya" jarayonining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq holda periferik asab tizimi kasalliklarining soni ko'payib bormoqda. Bu

aksariyat holatda orqa miya va uning ildizchalari zararlanishi bilan kechuvchi umurtqa pog'onasi patologiyasi bilan bog'liq [9, 18, 30, 36, 56, 60,61,87,143, 153, 169].

Beldagi og'riqlar bilan barcha bemorlarning atiga 40%i shifokor-larga yordam so'rab murojaat qiladilar. Shunga qaramasdan nevrologlar ama-liyotida spondilogen og'riq sindromi eng ko'p uchraydi.

Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra (G'ofurov B.G'.,2006) umumiy populyatsiyaning 84% aholisida hayotida bir marotaba bo'lsa ham beldagi og'riq holati kuzatiladi, 28,4-56,7% holatda og'riqlar uzoqroq davom etadi. Hozirgi vaqtda umurtqa pog'onasining yoshga xos – spondilyoz va degenerativ-distrofik o'zgarishi – osteoxondroz turlari farqlanadi [50, 84, 145, 150, 160, 167].

Kattalar nevrologik kasalliklari strukturasida periferik nerv sistemasi kasalliklari ikkinchi o'rinda turadi. Tarqalishiga ko'ra periferik nerv tizimi kasalliklari ichida esa bel-dumg'aza sohasi radikulopatiyalari birinchi o'rinni egallaydi va 70%ini tashkil etadi [18, 26, 31, 44, 55, 87, 104, 106, 144].

Bel umurtqasi osteoxondrozi nevrologik sindromlari ambulator nevrologik amaliyotda vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikning hamda gospitalizatsiyaning asosiy sababi hisoblanadi. Boshqacha aytganda bel sohasidagi og'riqlar nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohaning dolzarb muammosidir.

Umurtqalararo diskning patologik o'zgarishlari 90% holatda umurtqa pog'onasi bel-dumg'aza sohasi radikulopatiyalariga sabab bo'lmoqda. Bu guruhda-gi diskogen radikulopatiyalar nevrologik kasalliklar strukturasida keng tarqalganligi, jarayon kechishining og'irligi va bioijtimoiy asoratlari tufayli alohida ahamiyat kasb etadi. Asab kasalliklaridan nogironlikning oshishi, umumiy ish vaqtining yo'qotilishi va mehnatga layoqatsizlik holatlarining 70%dan 86%gachasini bel-dumg'aza sohasi diskogen radikulopatiyalari tashkil qiladi [8, 14, 25, 46, 61, 89, 93, 161, 169,201,214].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bel sohasida og'riq bilan har uchinchi bemorda o'tkir og'riqlar surunkali shaklga o'tadi va 12 xaftadan ortiq muddat davomida saqlanadi [15, 49, 62, 87,92,104,109]. Bel-dumg'aza sohasidagi surun-

kali og'riq sindromlari (low back pain)doimo o'ziga katta e'tiborni talab qilib kelgan.

AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra umurtqa pog'onasining pastki sohasidagi og'riqlar 40-80%gacha tarqalganligi, yillik kasallanish esa 5%ni tashkil etishi aniqlangan [14, 87, 116, 130, 145, 163]. 20 yoshdan 64 yoshgacha barcha aholining erkaklarida 24% holatda, ayollarida 32% holatda bel sohasidagi og'riqlardan aziyat chekadi [7, 16, 52, 56, 60, 68, 88,104]. Shu bemorlarning mehnatga layoqatli 10-20%ida bel sohasidagi o'tkir og'riqlar surunkali turiga o'tadi (Veyn A.M., 2001). Aynan shu guruh bemorlariga sog'liqni saqlash tizimida bel sohasidagi og'riqlarni davolash uchun ajratiladigan mablag'ning 80%i sarflanadi. Shunga qaramay kasallik oqibati yomon va sog'ayish darajasi past bo'lib qolmoqda.

O.S. Levinning ma'lumotlariga ko'ra Rossiya aholisining 48% da osteoxondroz rivojlanishiga irsiy moyillik aniqlangan va periferik nerv sistemasi kasalliklari orasida uning klinik namoyon bo'lishi 71-80% ni tashkil etadi (patologik jarayonning asosiy sababi umurtqalararo diskdagi distrofik-degenerativ o'zgarishlar).

Ya.Yu. Popelyanskiy esa osteoxondrozni biriktiruvchi to'qima tug'ma yoki orttirilgan funksional nuqsoni natijasida rivojlanib, uning sistem surunkali kechishining bir ko'rinishi deb hisoblaydi.

Hozirgi kunda bel-dumg'aza radikulopatiyalarini keltirib chiqaruvchi omillar (BDR) vertebrogen (ko'pincha umurtqa pog'onasi osteoxondrozi) va novertebrogen guruhlarga bo'linadi. Odatda bel sohasidagi og'riqlar umurtqa pog'onasidagi degenerativ-distrofik o'zgarishlarini klinik aks ettirib, reflektor, ildizli og'riq, ildizli-qon tomir sindromlari rivojlanishiga olib keladi [42, 51, 54, 100].

Umurtqalararo disklarning degenerativ-distrofik o'zgarishlar 37,4% holatda ildizli sindromlar bilan namoyon bo'ladi [23, 27, 61,87,89,90,122].

Umurtqa kanali va uning hosilalari murakkabligi, orqa miya ildizlariga vegetativ-qon tomir, reaktiv yallig'lanish jarayonlari, dimlanish va boshqa omillar

ta'sir etishi vertebrogen ildizcha zararlanishi klinik manzarasini murakkab ko'rinishga olib keladi. Ildizli sindrom klinik manzarasi shuningdek ildizchalarning patologik jarayonga tortilishi darajasiga ham bog'liqdir [23, 84, 89, 96, 104, 112, 132, 153, 167].

Patogenetik jarayon umurtqa pog'onasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lganda vertebrogen va bog'liq bo'lmagan novertebrogen og'riq sindromlariga ajratiladi. Orqa miya bel va dumg'aza ildizchalari zararlanishining vertebrogen sabablariga umurtqalararo disk churrasi, markaziy va lateral umurtqa kanali torayishi, spondilolistez va umurtqa pog'onasi nostabilligi, umurtqa yoyi va o'siqlari degenerativ o'zgarishidagi artropatik sindrom kabilarni kiritish mumkin [42, 49, 63, 68, 81, 87, 155, 161].



Ildizga mexanik ta'sir natijasida uning tolalari jarohatlanadi. Uning bir qismida segmentar demielinizatsiya, ikkinchi qismida esa hujayraning Vallercha qayta tashkillanishi kuzatiladi [Ochoa J., Rydevik B., 2009].


Belning pastki qismidagi og'riq low back pain ingliz mualliflari atamasiga ko'ra) deb belda, dumg'azada va dumg'aza yonbosh sohasida kuzatiladigan og'riqlarning umumiy bir atama bilan yuritilishidir.

Spondilogen radikulopatiyalar – bu umurtqalararo disk yoki umurtqalararo bo'g'imning zararlanishi bilan kechadigan, umurtqaning degenerativ kasalligidir. Diskogen radikulopatiyaning eng ko'p uchraydigan sabablari umurtqalararo disk churrasi va spondilyoz hisoblanadi, lekin belning pastki sohasidagi og'riqqa (BPSO) olib keluvchi 90 dan ortiq kasalliklar ma'lum. Bu kasalliklar amaliyotda tez-tez uchramasada nozologik tashhis qo'yishda ularni mavjudligini unutmasligimiz lozim. [6, 13, 28, 40, 48, 60, 68, 77, 81, 90, 91, 92, 109, 153, 168].

Bel sohasidagi og‘riqning vertebrogen sabablariga shuningdek, kam uchrovchi umurtqaning xavfli hosilalari (birlamchi o‘sma va metastazlar), uning yallig‘lanishi (spondiloartropatiyalar, shu jumladan, ankilozlanuvchi spondilit), infeksiyon kasalliklari (ostemielit, epidural abscess, sil 0,7%, 0,3%, 0,01% tartib bo‘yicha beldagi o‘tkir og‘riq sababi bo‘lishi mumkin) va osteoporoz tufayli umurtqa tanasining kompression sinishi misol bo‘la oladi [7, 87, 92, 104, 108].

Shu bilan birga spondilogen radikulopatiya 45 yoshdan kichiklarda jismoniy faoliyat cheklanishining asosiy sababi bo‘lmoqda. O‘tkir va surunkali bel og‘riqlari hisobga olinadigan bo‘lsa BPSO shamollash va kichik jarohlardan keyingi eng asosiy bemorlarning shikoyatidir.

Odatda o‘tkir BPSO sababi umurtqalararo disk churrasi, surunkali og‘riq sababi esa, umurtqa pog‘onasi spondilyozidir.



Umurtqa pog‘onasi osteoxondrozi – bu umurtqalararo disk tog‘ayining degenerativ zararlanishi bilan birgalikda umurtqa tanasining reaktiv o‘zgarishidir. Bunda birinchi bo‘lib yadro zararlanadi, keyinchalik fibroz halqada degenerativ o‘zgarish kuzatiladi, tirqishlar paydo buladi va undan pulpoz yadroning oqib chiqishi kuzatiladi. Umurtqa harakat segmenti harakatchanligi o‘zgarishi natijasida umurtqalararo bo‘g‘imlarda zararlanish yuzaga kelib, spondiloartroz rivojlanadi.

Spondilyoz- umurtqalar ankilozi. Bu umumiy nospesifik termin bo‘lib, ko‘pincha umurtqaning turli degenerativ tabiatli zararlanishlariga nisbatan ishlatiladi. Ankiloz– bu kasalliklar tufayli bo‘g‘imlarning rigidligi yoki fiksatsiyasi bo‘lib, uning fibrozi yoki ossifikatsiyasiga olib keladi. Spondiloartroz deb, ko‘pincha umurtqalararo bo‘g‘imlar zararlanishi tushuniladi.



Spondilogen radikulopatiyalar

rivojlanishining asosiy omillardan osteoporoz hisoblanadi. Osteoporoz suyaklarning har qanday joylarida sinishlarning sababi bo'lishi mumkin. Lekin asosan sonning proksimal qismida, tirsakning distal qismida sinishlar kuzatiladi. Osteoporoz tufayli umurtqalar va naysimon suyaklarning sinishi kasallanish, nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarini oshishiga olib keladi [44, 74,87, 88, 92, 169, 254, 270].

Bel sohasida og'riq quyidagi tuzilmalar zararlanishidan kelib chiqadi: pulpoz yadro churrasi, umurtqa kanalining torayishi (markaziy va lateral kanal torayishi), umurtqalararo diskning (uning degeneratsiyasida) va disk atrofidagi strukturalar zararlanishi (umurtqalararo bo'g'imlardagi patologik jarayonlar, spondilolistez), miofassial og'riq sindromlari.



Vertebrogen radikulopatiyalar: ildizli (bevosita ildizning zararlanishi bilan kechganida), kompression radikulopatiyalarga (tez rivojlanadi va nogironlikga olib keladi) va skelet-mushak og'riq sindromlariga (lyumbalgiya, lyumboishalgiya, bu sindrom asosan bemor hayoti sifatini pasaytiradi) ajratishga sabab bo'ladi [49, 53, 68, 71, 81, 88, 104, 134, 178, 265,269].

Diskogenli bel-dumg'aza radikulopatiyasi klinik manzarasi orqa miya ildizlariga, qon tomirlariga va umurtqa harakat segmentining boshqa

strukturalariga hamda ko'p omillarning ta'siriga bog'liq bo'lib, buning oqibatida nositseptorlarning uzoq vaqt qo'zg'alishi kuzatiladi. Bu og'riq sindromlarining surunkali shakliga o'tishiga va radiulopatiyalarni uzoq vaqt kechishiga olib keladi [20, 56, 85, 107, 131].


Modikning MRTdagi o'zgarishlariga xos simptomlaridan o'rab turuvchi plastinlarning degeneratsiyasi bilan yakunlanadi:

- Modik-1: $\downarrow T1$ va $\uparrow T2$ – o'rab turuvchi plastinlarda va unga yaqin bo'lgan suyak to'qimasida shishi;
- Modik-2: $\uparrow T1$ va izo- yoki o'rtacha $\uparrow T2$ – suyak to'qimasida yog'li o'zgarishlar;
- Modik-3: $\downarrow T1$ va $\downarrow T2$ – osteoskleroz, suyak to'qimasining suyak trabekulalari bilan qalinlashuvi.

Modik-1dagi o'zgarishlarda umurtqa tashqi plastinida uzuratsiyasi va umurtqa tanasida shish va yalig'lanishning yaqqolashuvi qon tomirli granulyatsion to'qimalar bilan namoyon bo'ladi. Bunda umurtqaning trabekulyar strukturasi va suyak to'qimasidagi o'zgarishlar xos emas. MRT tekshirishda T1 rejimda (likvor to'q rangda bo'lganida) signalning past darajadali, T2 rejimda (likvor yorqin rangda) signalning yuqori darajadagiligi namoyon bo'ladi (1 rasm). Shunday qilib, Modik-1 dagi o'zgarishda suyak to'qimasida shish va yalig'lanish mavjudligi bilan namoyon bo'ladi [14].

Yog'lik degeneratsiyaning shishdan farqlash uchun yog'ni yutuvchi STIR yoki T2 FS rejim ishlatilib, bunda shish kesmalarda o'zgarmagan xolatda saqlanib qoladi. Modik -2dagi o'zgarishlarda umurtqa tanasi va suyak to'qimada qizil suyak ko'migi ishemiya tufayli sariqga almashinadi, natijadi yog'lik involyusiya kuzatiladi. Modik-2 MRT kesimlarida T1 signal yuqori darajada T2 signal esa o'rtacha daraja ko'rinishda bo'lib, bu gemopoitik qizil suyak ko'migi sariqga aylanishidan dalolatdir. (1 rasm).

Modik -3 da umurtqa suyak to'qimasi zinchligining va trabeklyar strukturasi o'zgarishi MRT kesimida ikkala rejimda signal darajasini pasayganligini ko'rsatadi(5 rasm).



5 rasm. Modikni MRTda ko‘rinishi.

Modik-1 da spondilopatiyalar 52% xolatlarda Modik-2 ga, 40% larda bir necha sigmentlarga va 8% ginasida esa miyoriy xolatga qaytishi aniqlangan. Ma’lumotlarga ko‘ra Modik-1 bo‘yicha bemorlarda aseptik spondilopatiyalar 80% xolatlarda dorsalgiyalar aniqlanmoqda. Ushbu bemorlarda og‘riq doimiy xarakterda bo‘lib, tungi vaqtlarda, tinch xolatda, jismoniy mashqlarda xam beldagi og‘riq kamaymaydi. [24].

Modik bo‘yicha asseptik spondilodissitning rivojlanishi xaqida hozirgi vaqtgacha yagona fikr aniqlanmagan. Bir fikrga ko‘ra, umurtqalararo disk churrasi tufayli ikkala yonma-yon umurtqalarni urab turuvchi plastinda mexanik zo‘riqish tufayli umurtqa tanasida yallig‘lanish oqibatida darz ketishiga olib keladi. Umurtqalararo disk churrasi degenerativ jarayonlarga sababchiligi tufayli Modik faktorlarini yuzaga keltiruvchi xisoblanadi [6, 7,9,20].

Boshqa fikrlar bo‘yicha jaroxat yoki uzoq vaqtli mexanik zo‘riqishlar oqibatida umurtqa pog‘onasidagi qon tomirli granulyatsion to‘qimalarning rivojlanishiga sababchi bo‘ladi. Shunday takliflar kiritildiki, asseptik yallig‘lanish-bu umurtqalar suyak to‘qimasining disklardagi degenerativ jarayonga javob reaksiyasidir, xemonukleozis usuli bilan disklardagi degeneratsiyaning kuchayishi 40% xolatlarda kuzatildi. Modikdan so‘ng diskektomiya qilinganda 8% xolatlarda yallig‘lanish yuzaga keldi. Taxmin qilishlaricha, disk degeneratsiyasi ikkala yonma-yon umurtqa oraliq plastinkasiga ta’sir qilib, natijada umurtqa tanasida aseptik yallig‘lanishiga olib keladi. Yana bir nazariyaga ko‘ra umurtqalararo

diskda qayta jaroxatlar tufayli yalig'lanish mediatorlari xosil bo'lib, ular umurtqa tanasidagi ikkala yonma-yon umurtqalarni urab turuvchi plastinlariga borib maxalliy yalig'lanishni va bel soxasidagi og'riqlarga sababchi bo'ladi [21, 26].

Bemorlar yoshi va Modik bo'yicha o'zgarishlarning ortishi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri korrelyatsiya mavjudligi tasdiqlangan. Tasdiqlangan ushbu teoriya bo'yicha 166 nafar bemorlarda prospektiv tekshirish (operativ davoga muxtoj bo'lmaganlarga) olib borilganda, 14 oy davomida Modik-1 bo'yicha ikkala yonma-yon umurtqalarni urab turuvchi plastinlardagi o'zgarishlar uch barobarga oshganligi aniqlangan [24].

Tadqiqotchilar taklificha, Modikning o'zgarish disk atrofidagi degenerativ jarayonlarning zarur elementi xisoblanadi. Modik-1 dagi dorsalgiyalar ikkala yonma-yon umurtqalarni urab turuvchi plastinlarda immunoreaktivli nerv dendritlari joylashib, ular asseptik yalig'lanishni o'zgartiruvchi jarayonlariga o'smani nekrozlovchi faktorigi va boshqa yalig'lanishga qarshi sitokinlarga (interleykin (IL)-6, IL8, prostaglandin Ye2) javob berishi mumkin. Modik-1 dagi o'zgarili umurtqa plastinkasi gistologik tekshirilganida ushbu plastinlarda dars ketishi, tog'ayining degeneratsiyasining ortib ketishi, qon tomirlarinig o'sganligi va nositseptorlar miqdorini ortib ketishi aniqlangan. Shunday qilib, Modik-1 dagi o'zgarish yaqqollashgan yalig'lanishli jarayonning barcha xususiyatlarini o'ziga jamlaganligini aniqlangan bo'lib, Modik-2 va -3lar yalig'lanish jarayonlarining pasayishini ko'rsatadi. [20].

MCh1ni davolash va uning klinik namoyon bo'lishi shifokorlar uchun katta muammo tug'dirmoqda. Standart og'riqqa qarshi davolash zarur bo'lgan natija bermayapdi, nesteroid yalig'lanishga qarshi preparatlar, antikonvulsantlar, nenarkotik yoki narkotik analgetiklarni kombinatsiyalab ishlatganda xam natija aytarli samarasiz bo'lib, nojo'ya ta'sirlarini xam ko'rsatmoqda [2, 19]. Aseptik spondilopatiyalarni davolashda antibiotiklarning samaradorligi xaqida bir biriga qarshi bo'lgan fikrlar mavjud [8, 14, 15, 20]. Fizioterapiyani qo'laganda ko'pincha suyak to'qimasida shishni va klinik simptomatikani rivojlantirishga olib keladi. Bunda adabiyotlardagi yozishlari bo'yicha suyak to'qimasidagi shish (MCh1)

yogʻli degeneratsiyaga (MCh2) va osteosklerozga (MCh3) olib kelib, 2-3 yil davomida asta-sekin ogʻriq simptomi va beldagi boshqa klinik simptomlar regresiga uchraydi. Ayrim adabiyotlarda taʼkidlashicha, Modik boʻyicha dorsalgiyalarni kompleks davolashda issiq fizioterapiyalar, ultratovushli toʻlqinlar, nervni teri orqali stimulyatsiyasi va maxsus sport mashqlari (Uilyams va Makkenzilar boʻyicha) qoʻllash samaradorligi taʼkidlagan.


Yuqorida qaud qilinadigan davolash usullari, yaʼni umurtqani stabillovchi operatsiyalar, metilprednizalon bilan intradiskal blokadalar, antibiotiklar bilan davo kursi va bifosfonatlarni qoʻllash ogʻriq sindromini toʻliq va turgʻun yoʻqotishga, xamda neyrovizualizatsion koʻrsatkichlarni yaxshilanishiga olib kelmagan [22, 61, 78, 91, 124, 232].

Shunday qilib, Modik boʻyicha asseptik yaligʻlanishli dorsalgiyalar xozirgi vaqtda vertebronevrologiyaning patogenezida va koʻp miqdordagi davolash va reabilitatsiyasida toʻliq xal qilinmagan muommolardan biri xisoblanadi.

Osteoxondrozning asosiy klinik simptomlari patologik jarayon fibroz halqaning orqa qismiga va orqa bogʻlamga tarqalganda kuzatiladi. Umurtqalararo disk degeneratsiyasi bosqichiga bogʻliq holda orqa miya ildizchalarining taʼsirlanishi, kompressiyasi yoki oʻtkazuvchanligining buzilishi, qon tomirlarning yoki orqa miyaning bosilishi kuzatiladi. Jarayon bosqichiga qarab turli xil nevrologik (reflektor va kompression) sindromlar kuzatiladi.

Osteoxondrozda ogʻriq sindromining asosiy sababi bu nerv ildizchasining «irritatsiyasi» hisoblanadi. Bunda, ildizchada qon aylanishi buziladi, shish yuzaga keladi va keyinchalik atrofidagi tuzilmalarda fibroz rivojlanishi mumkin, bu ildizchaning turli xil taʼsirotlarga sezuvchanligi oshib ketishiga olib keladi (umurtqa pogʻonasi zararlangan segmentida harakat boʻlganda va boshqalar) [30, 43, 122, 135, 138].

Degenerativ jarayonning bel sohasi boʻgʻimlarida ham kuzatilishi umurtqa pogʻonasi vertebrogen kasalliklari boʻlgan har uchinchi bemorda surunkali lyumbalgiyaga olib keladi [60, 62, 63, 68, 87, 90, 92, 95].



Bel-dumg‘aza sohasi vertebrogen patologiyalari reflektor, ildizli, qon tomir-ildizli va spinal sindromlarga ajratiladi [39, 42, 70, 61, 68, 90].

Boshqa mualliflar og‘riq sindromining 4 ko‘rinishini ajratadilar: lokal, proeksion, radikulyar (ildizli) va mushaklar spazmi natijasida yuzaga keladigan og‘riqlar. Amaliyotda odatda bir bemorning o‘zida og‘riq sindromining bir necha turi aralash holda kuzatiladi. Shu turdagi og‘riq sindromlaridan biri lyumboishalgiya bo‘lib, shartli ravishda uchta turga bo‘linadi: mushak-tonik (noksimon, boldir, dumba mushaklari sindromlari), neyrodistrofik, nerv-qon tomir turlari [52, 61, 70, 137, 147, 152].

Shuningdek, artropatik buzilishlar (yoysimon o‘siq bo‘g‘imlarida va dumg‘aza-yonbosh bitishmasida), o‘rta va kichik dumba mushaklari, yonbosh-qovurg‘a mushaklari va yonbosh-bel mushaklaridagi miofassial og‘riq sindromlari ham lyumboishalgiyaga olib kelishi mumkin. Yoysimon o‘siq bo‘g‘imlaridagi (fasetkali, apofizeal)patologik jarayonlar beldagi lokal va uzatiluvchi aks og‘riqlarning sababi bo‘lishi mumkin. Bel sohasidagi og‘riqlar bilan murojaat qilgan bemorlarda aynan shu bo‘g‘imdagi patologik o‘zgarishlar 15-40% holatda kuzatiladi. Yoysimon o‘siq bo‘g‘imlari patologik zararlanishi uchun patognomik bo‘lgan simptomlar yo‘q.

Yoysimon o‘siq bo‘g‘imlaridagi patologik jarayonlar tufayli yuzaga kelgan og‘riqlar chov sohasiga, sonning tashqi va orqa yuzasiga, dum sohasiga irradiatsiyalanadi. Og‘riqning diagnostik ahamiyatli klinik xususiyati bu ekstenziya va rotatsiya vaqtida og‘riqning kuchayishi, shuningdek, yoysimon o‘siq bo‘g‘imi

proeksiyasida palpator og‘riqning kuzatilishidir. Shuningdek, mahalliy anestetiklar bilan bo‘g‘im proeksiyasiga blokada qilinganda ijobiy natija olinadi [33, 68, 87, 91, 104, 156, 167].

Reflektor og‘riq sindromi umurtqa pog‘onasi retseptorlari qo‘zg‘alishi va afferent impulsatsiya orqali oldingi shox motoneyronlariga ta’sir etishi oqibatida paydo bo‘lib, innervatsiya sohasidagi mushaklar tonusi oshishi va trofikasining o‘zgarishi bilan kechadi [34, 52, 81, 84, 88, 92, 104].

Mushak-tonik sindromi barcha mushaklarda rivojlanishi mumkin, lekin odatda trapesiyasimon, narvonsimon, to‘sh-o‘mrov-so‘rg‘ichsimon, noksimon mushaklarda ko‘proq uchraydi. Og‘riq jismoniy zo‘riqishlarda va sovqotishlarda hamda noqulay sharoitda uzoq vaqt turib qolganda paydo bo‘ladi [46, 64, 80, 81, 87, 91, 120, 129, 143]. Og‘riqlar to‘satdan mushaklarning keskin spazmi tarzida paydo bo‘lishi yoki mushaklarning surunkali zo‘riqishi natijasida asta-sekin kuchayib boruvchi tusda bo‘lishi mumkin.

Radikulopatiyalardan farqli ravishda, mushak-tonik sindromida og‘riq intensivligi turlicha, eng yengil noqulaylik darajasidan kuchli azob beruvchi og‘riq darajasigacha bo‘lishi mumkin. Og‘riq simillovchi, tortishuvchi, ba’zan achishuvchi tusda bo‘lishi mumkin. Og‘riqlar odatda dermatom, miotom yoki sklerotom bo‘yicha tarqaladi [15, 17, 46, 87, 89, 104, 115, 118]. Tushish simptomlari kuzatilmaydi.

Bel-dumg‘aza sohasidagi «lokal» og‘riq - «lyumbalgiya» termini bilan, og‘riq oyoqlarga uzatilishi bilan kechsa - «lyumboishialgiya» va bel yoki dumg‘aza ildizlarining vertebrogen zararlanishi oqibatida og‘riq va uning oyoqlarga uzatilishi kuzatilsa, «kompression radikulopatiya» larning klinik o‘zgarishlarini namoyon etadi.

Bel-dumg‘aza sohasi osteoxondrozi radikulopatiyalarida ko‘pincha ildizlarning umurtqa kanali epidural sohasida va umurtqalararo teshikning medial qismida (ayniqsa umurtqa kanali va umurtqalararo teshik tor bo‘lganda) yallig‘lanishi oqibatida ham kuzatiladi. Orqa lateral disk churrasi bilan bir qatorda reflektor ishemiya tufayli (ba’zan qon quyilishi tufayli) faqat bir ildizning shishi

bilan radikulopatiyalar kuzatiladi. Shuningdek, aseptik yallig‘lanish tufayli shu sohadagi venalarning varikoz kengayishi natijasida ham radikulopatiyalar yuzaga kelishi mumkin [8, 9, 34, 60, 81, 82, 88, 92, 104].

Umurtqa pog‘onasi osteoxondrozi natijasida yuzaga keluvchi reflektor sindromlar deyarli har bir insonning hayotida kuzatiladi, kompression sindromlar esa nisbatan kam uchraydi.

Mushaklarning reflektor taranglashuvi boshlanishida himoyaviy javob sifatida yuzaga keladi (zararlangan segmentning immobilizatsiyasiga olib keladi). Lekin keyinchalik u og‘riqni davomiyligini ta‘minlovchi asosiy omilga aylanadi.

Radikulopatiyalarni tashhishlashda kuchli og‘riq sindromining ildizcha funksiyasining tushish simptomlari bilan birga kelishi eng muhim mezon hisoblanadi.

Radikulopatiyalarning klinik manzarasi oyoq barmoqlariga “uzatiluvchi” (“uzun og‘riqlar”) o‘tkir, intensivligi yuqori og‘riqlar bilan namoyon bo‘ladi. Og‘riqlar umurtqa pog‘onasi bel qismining harakatida kuchayadi. Og‘riqlar uvishish, igna sanchilishi, kuyishish kabi belgilar bilan birga kuzatiladi.

Ildizcha funksiyasining tushish simptomlariga gipesteziya yoki sezgining pasayishi, reflekslarining yo‘qolishi, mushaklar gipotoniyasi va atrofiyasi kiradi.

Lasseg sinamasi(bemor chalqancha yotib, oyog‘ini to‘g‘ri yuqoriga ko‘tari-shi) o‘tkazilganda bel sohasidan zararlangan ildizcha bo‘ylab og‘riqning zo‘rayishi kuzatiladi. Palpatsiyada paravertebral mushaklarda taranglashish va og‘riq aniqlanadi.

Miofassial og‘riqlar- reflektor (mushak-tonik) og‘riq bo‘lib, umurt-qalararo disklar, umurtqa pog‘onasi boylamlari va bo‘g‘imlarida patologik o‘zgarishlar tufayli retseptorlaridan hosil bo‘lgan impulsatsiya natijasida yuzaga keladi. Miofassial og‘riqlar mushaklar va ular bilan bog‘liq fassiyalardagi trigger nuqtalarning ta’sirlanishidan hosil bo‘ladi. Trigger nuqtalar mushaklar umurtqa pog‘onasi osteoxondrozi fonida mushaklar taranglashuvi natijasida yuzaga keladi. Mushaklarni tortilishi, uni bosilishi, palpatsiyasida og‘riqning yuzaga kelishi tashhisni tasdiqlaydi.

Tanamizning zararlangan segmentini himoyalash maqsadida fiziologik holatda mushaklar taranglashadi va mushak korsetini hosil qiladi (zararlangan soha immobilizatsiyasini ta'minlash uchun). Lekin ushbu taranglashgan mushaklar qo'shimcha og'riqni keltirib chiqaradi. Ba'zan mushaklar birlamchi zararlanadi (umurtqa pog'onasida morfologik va funksional o'zgarishlar bo'lmaydi).

Antifiziologik holatdan to mushaklar distressigacha mushaklarning haddan ortiq taranglashuvi natijasida miofassial to'qimalar disfunksiyasini chaqirib, og'riq sindromini paydo qiladi.

Miofassial og'riqlar vertebrogen patologiyaga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'lishi yoki har qanday vertebrogen og'riqlarning asorati bo'lishi mumkin.

Patologik jarayonga barcha paravertebral va ekstravertebral mushaklar, eng avvalo, noksimon, o'rta dumba va bel sohasi paravertebral mushaklari tortiladi.

Mushak- tonik sindromi klinik manzarasi:

1. Taranglashgan mushak atrofida to'mtok, chuqur og'riq ("kalta" og'riq). Ushbu mushaklar ishtirokidagi harakat og'riqni kuchaytiradi.
2. Lasseq sinamasida bel sohasida yoki sonda mahalliy og'riq kuzatila-di.
3. Paypaslaganda mushaklar taranglashgan, og'riqli va mahalliy gipertonusga ega.

Kompression radikulopatiyalar odatda umurtqa pog'onasi bel-dumg'aza qismi umurtqalararo disk churrasi bilan shu sohadagi ildizchalarning bosilishi yoki umurtqa pog'onasi bel-dumg'aza qismi stenozida kuzatiladi.

Radikulyar (irradiatsiyalanuvchi) og'riqlar yuqori intensivlikka egaligi, shu ildizchaga mos keluvchi dermatom bo'ylab distal qismga (periferiyaga) tarqalish xususiyatiga ega. Bu og'riq ildizchaning (orqa miya nervining) cho'zilishi, ta'sirlanishi va bosilishi natijasida yuzaga keladi. Og'riq deyarli har doim umurtqa pog'onasidan qo'l yoki oyoqning biror bir qismi tomon uzatiladi. Yo'tal, aksirish va jismoniy yuklama radikulyar og'riqni kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi. Shuningdek, nervning cho'zilishi yoki uning kompressiyasini kuchaytiruvchi orqa miya suyuqligida bosimning oshishi (masalan yo'tal yoki kuchanish) og'riq sindromining kuchayishiga olib keladi.

Ot dumining kompressiyasi odatda oraliq sohasida og'riq va gipalgeziya bilan kechadi. Zararlanish asimmetrik bo'lib, sfinkterlar vazifasining buzilishi kuzatiladi [34, 37, 39, 61, 64, 68, 87, 89, 92, 104, 145].

Ya.Yu. Popelyanskiyning (2003) fikricha, kompression ildiz sindromi (diskogenli radikulopatiyalar) uchun og'ir yuk ko'tarish, keskin nojo'ya harakat, sovqotishdan keyin to'satdan og'riq paydo bo'lishi xarakterli. Uning klinik manzarasi zararlanish joylashishiga bog'liqdir. Sindromning asosida statik va dinamik zo'riqish, garmonal buzilishlar natijasida distrofik jarayonlarning yuzaga kelishi, umurtqalararo disk churrasi tomonidan orqa miya ildizchasining bosilishi yotadi. Orqa miya ildizchalarining miya qattiq pardasidan umurtqalararo teshikgacha bo'lgan qismi patologik jarayonga eng ko'p tortiladi. Disk churrasidan tashqari suyak o'simalari, epidural to'qima chandiqlari, gipertrofiyalangan sariq boylam ham orqa miya ildizchasini jarohatlashi mumkin.

Orqa miyaning yuqori bel ildizlari (L_1, L_2, L_3) kamdan-kam holatlarda shikastlanadi: ular bel sohasi ildizli sindromlarining 3% ini tashkil etadi. Odatda orqa miyaning L_4 (6%) ildizi zararlanib, o'ziga xos klinik manzarani hosil qiladi: sonning oldingi, ichki va pastki yuzasi bo'ylab, boldirning medial yuzasi bo'ylab tarqaluvchi kuchli bo'lmagan og'riq, shu soha paresteziyasi, sonning to'rt boshli mushakda biroz quvvatsizlik aniqlanadi. Tizza refleksi saqlanishi, ayrim hollarda oshishi kuzatiladi.

Hammasidan ko'proq L_5 (46%) ildiz zararlanadi. Bunda og'riq belda, dumba sohasida, sonning tashqi yuzasida, boldirning oldingi tashqi yuzasida kuzatiladi va hatto oyoqning birinchi uchta barmog'igacha uzatiladi. Ko'pincha boldirning oldingi tashqi yuzasida sezgining pasayishi, birinchi barmoqning yozuvchi mushaklarida quvvatsizlik aniqlanadi. Bemorga oyoq to'voni bilan tik turish qiyinchilik tug'diradi. Uzoq vaqt davom etgan radikulopatiyalarda oldingi boldir mushaklarining gipotrofiyasi kuzatiladi.

L_5 ildizi singari S_1 ildizi ham ko'p zararlanadi (45%). Bu ildizcha zararlanishi uchun og'riqning son tashqi orqa yuzasi, boldirning tashqi yuzasi bo'ylab oyoq panjasiga irradiatsiyasi xarakterli. Bemor nevrologik tekshirilganda boldirning

tashqi orqa yuzasi bo'ylab gipalgeziya, sonning uch boshli mushagi va oyoq panjasi bukuvchi mushaklarida quvvatsizlik aniqlanadi [15, 24, 51].

Bel-dumg'aza sohasida og'riqning shakllanishida dumg'aza-yonbosh suyaklar birlashmasi disfunksiyasi katta ahamiyatga ega. Bu disfunksiya disk churrasi (MRT ma'lumotlariga ko'ra) aniqlangan bemorlarda og'riq sindromining yagona sababchisi bo'lishi mumkin. Og'riq dumg'aza-yonbosh birlashmasidan chov sohasiga va S₁ dermatom bo'yicha irradiatsiyalanishi mumkin. Og'riq bemor yurganda kamayadi. Og'riqlar kunning birinchi yarmida kuchliroq namoyon bo'ladi va kechqurunga borib ancha kamayadi. Dumg'aza-yonbosh birlashmasidagi patologik jarayonlar natijasida yuzaga keluvchi og'riqlarning klinik manzarasi patognomik xususiyatga ega emasligi sababli mahalliy anestetiklar vositasida ushbu soha blokadasidan og'riqni 90%dan ortiq darajada kamayishi tashhislashning oltin mezon sifatida qabul qilingan [106, 170].

1.2. Bel sohasi radikulopatiyasi bilan og'rigan bemorlar tibbiy reabilitatsiyasi

Mazkur patologiyada davo kompleks tarzda olib borilishi lozim. Hozirgi vaqtda eng muhim tamoyil etiologik davo hisoblanadi va u hozirgacha to'liq ishlab chiqilmagan [Lixachev S.A., Sholomov I.I. 2008].

Bel sohasidagi o'tkir suyak-mushak og'riqlarining birinchi kunlarida ham yotoq tartibiga rioya etish, fiksatsiyalovchi belboqlar taqish, harakatlanish uchun tirgovichlar (qo'ltiqtayoq yoki arqon) shart emas. Bemor kundalik jismoniy harakatlarini davom ettirishi, og'riq sindromi regresslanganda tezroq o'z ish faoliyatini boshlashi kerak. Quyida dalillarga asoslangan tibbiyot nuqtai nazaridan o'zini oqlagan davo usullari keltiriladi [108].

«A» kategoriyada (sifatli utkazilgan randomirlangan nazorat tekshirish isbotlangan effektiga asoslangan) tushak xolatini bekor etadi, nosteroid yalliglanishga karshi dori vositalari (NYaKDV) kabul kilish, kushimcha analgetik sifatida, kuchli og'riqli sindromlarda tramadol qo'llaniladi.

«V» darajali isbotlangan usulda (bunda randomirlangan nazorat tekshirish ma'lumotlari yuk, lekin nazorat guruxi kullanilgan tekshirish yoki "tasodifiy

nazorat” tekshirishi mavjud) tungi okriglarda (miorelak-santlar) va bel soxasidagi diskomfortlarda miorelaksantlar kullangan.

Asetaminofenni rutinli ishlatish, sOG-2 selektiv ingibitori maksadga muvofik emas, ya’ni birinchi navbatda NYaKDV effektli va ikkinchi navbatda trombotik asoratlar xavfining ortishidir.

Teri orkali elektroneyrostimulyatsiyalar, massaj va akupunkturalar maksadga muvofik emas, ya’ni ularning effektligi cheklangan.

«S» darajali isbotlangan usulda ushbu usul samaradorligi kam yoritilgan bulib, bunda bemorlar turmush sharoitini o’zgartirib, chekishni tashlaydi, tana ogirligini kamaytiradi, jismoniy mashklar tavsiya etilgan. Ushbu darajada manual terapiya va krioprotseduralar ishlatib, samaradorligi xozircha tuliq yoritilmagan, lekin ushbu usul xavfsiz bulib, davolash davomida bemorlarning qoniqishi ortadi.

«D» darajali isbotlangan usulda davolash gimnastikasi va epidural soxaga kortikosteroidlar in’eksiyasi kullangan, bunda ekspertlarning fikri buyicha effektli usul deb karalgan va ushbu uslubda davolashda bemorlarni sinchkovlik bilan ajratish zarur (Ye.V. Podgufarov 2003).

Dorilar bilan davolashning asosiy yunalishlariga:

- Ekstravertebral uchokda kon tomirli va distrofik uzgarishni tiklash, xamda sinuvertebral nervning asosiy kuzgalish mexanizmini tuxtatish (steroidli va nosteroidli yalliglanishga karshi doirilar, kon tomirlarni kengaytiruvchi dorilari va miorelaksantlar);

- Trofik jarayonlarni faollashtirish (biogen stimulyatorlar, xondro protektorlar, vitaminlar, anaboliklar);

- Simptomatik davo (trankvilizatorlar, antidepressantlar, gastroprotektorlar).

M.V.Putilin fikricha, bel-dumgaza radikulopatiyasi davosida ushbu asosiy dori vositalari tuliq sanalmagan, bunda yana anik bemorga klinik simptomlar patogenezi asosida individual tartib buyicha tanlash kerak.

Xozirgi kunda dorsopatiyalarni mutanosib tanlab davolash muammosi dolzarb bulib, klinik amaliyotda ko’pincha o’tkir va surunkali ogriqlarni davolashda bitta algoritmdan foydalanilmoqda. Umurtqa pogonasi degenerativ

zaralanishida, uning murakkab patogenetik kaskadi va patologiyaning yuzaga kelganliklarini xisobga olgan holda alohida algoritm ishlab chiqish lozimligini talab qilmoqda.

Utkir og'riqda bemorlarga 3 kun davomida tushak xolati zarur. Darxol dori preparatlari muolajalarini, ya'ni NYaKDV, analgetiklar, miorelaksantlar tavsiya etish kerak.

NYaKDV yaxshisi vena ichiga tavsiya etish kerak, bunda og'riqni koldiruvchi tezligi ortadi, doirining ta'sirchanligi oshadi. Bu guruxdagi dorilarning ruyxati yetarli ravishda keng bulib, ulardan tibbiyot amaliyotida kup ishlatilayotganlardan: diklofenak(75-100mg/kuniga), lornoksikam(8-32mg/kuniga), ketoprofen(100-320mg/kuniga), meloksikam(7,5-15mg/kuniga), nimesulid(200mg/kuniga).

Barcha YaKDV, analgetik va tana xaroratini tushiruvchi ta'sirga ega, ya'ni yalliglanish uchogida neytrofillar migratsiyasini va trombotsitlar agregatsiyasini tuxtatadi, bundan tashkari kon zardobidagi oksil bilan faol boglanadi. NYaKD ta'siri buyicha son jixatidan xususiyatli, lekin terapevtik ta'sir kuchi, bemorning kutara olishi va nojuya ta'siri bilan bir-biriga bogliklidir.

NYaKD yukori gastrotoksikligi, ularning siklooksigenazaning ikkala izoformasini tanlamasdan ingibirlanmı natijasida yukori sanogenetik ta'siri ajralib turadi.

Shu sababli kuchli og'riqli sindromlarda, bundan tashkari uzoq vaqt kullanilganda dorilarni yalliglanishga karshi, analgezirlovchi ta'siri kam gastrotoksik reaksiya beradiganlarini tanlash zarur.

Ushbu guruxdan kuprok ma'lum bulgan va yaxshirok ta'sirli dori vositalaridan bu- lornoksikamdir. Noyob birikma prostoglandindan siklooksigenazani kuchli ingibirlaydi, depressiv ta'siri endogen endomorfini ishlab chikarishni bir vaqtda faollashtirish lornoksikamni yaxshirok ta'sirli va xavfsizrok vositalardan biriga aylantiradi. Ushbu vositaning urtacha mikdori yukori mikdorli NYaKDDagidek ta'sirlidir.

Kuchli og'riqli sindromlarda birinchi kuni 16 mg mushak orasiga yoki vena ichiga kuniga ikki marta sungra mikdorini kuniga 8 mg gacha kamaytirib, 3-5 kun davomida kilinadi.

Miorelaksantlar tugridan –tugri analgetik ta'sirga ega bulmasada umurtqa pogonasi degenerativ kasalliklarida keng foydalanilmokda. Ushbu vositalarning davolash ta'siri orka miyaning GAMK-yergik tizimini potesirlash bilan boglikdir.

Ushbu guruxlardan asosiylari telperizon, baklofen, tizanidinlardir. Ular kuprok og'riqni mushak-tonik kismalar chakirganda ustunrok ta'sirga ega.

Miorelaksantlar 7-14 kundan ortik ishlatilmaydi. Vertebroqen og'riqlarga fakat medikamentoz vositalar emas, manual terapiya va fizioterapevtik muolajalar xam ishlatiladi. Shuni aytish joizki, ular og'riq utganidan sung 5-10 kun keyin tavsiya etiladi.

Dorsopatiyalarni davolashda, kuprok bugimlar artrozi va stenozlarida xondroprotektorlar katori muxim bulib, ular degenerativ jarayonni tuxtatib va og'riqni surunkali shaklini pasaytiradi.

Nevrologik amaliyot kuprok dori vositalarini parenteral yul bilan yuborish ma'kulrokdir. Oxirgi klinik tekshirishlar lyumboishialgiya bilan ogrigan bemorlarda “alflutop” vositasining yukori klinik ta'sirga egaligini tasdiklaydi. Alflutop tarkibida 4 xil dengiz baligi ekstrakti bulib, glikozaminoglikanlar, aminokislotalar, polipeptidlar, mikroelemntlarni xam uz ichiga oladi. Tekshirishlar natijasi buyicha ushbuni utkir og'riqlarni 10-14 kunlaridan boshlab 1 mldan mushak orasiga xar kuni 20 kungacha beriladi. Bundan tashkari xaftasida 2 martadan 4 nuktaga (xar bir nuktaga 1mldan) 5 ta muolaja paravertebral soxalarga yuborish mumkin (Levin O.S., 2005). Bu kuprok surunkali og'riqli bemorlarga ta'sirli xisoblanadi.

Kompression sindromlarda ishemiyaga karshi vositalar: antioksidantlar (etilmetilgidroksipiridin suksinat), antigipoksantalar (vinkotsitin, pentoksifillin). Andidepressantlarni ishlatish masalasi xar bir bemorga aloxida xal kilinadi.

Demak, dorsopatiyalarni dorilar bilan davolash murakkab masala bulib, kasallikni klinik yuzaga kelishi, patogenezini chukur bilishni talab etiladi. Vrach

jarayon boskichlarini xisobga olgan xoldagi ishlab chikilagn algoritmlarni inobatga olish kerak.

Utkir dorsopatiyalarni davolashda 1-2 xafta davomida og'riqlar aytarli darajada regressi bulishi kerak. Uzoq vaqtli xarakat aktivligi cheklanishining tushak xolatigacha bulishi xozirgi kunda nisbatan kurib chikilgan, ya'ni : urtacha og'riqlarda kiskacha cheklash tavsiya etiladi, kuchli og'riqlarda- tushak xolati 1-3 kungacha. Bunda bemorni "tugri" xarakatlar bajarishiga: kanday utirish, kanday turish, kanday yurishni ogirlik kutarmasligi va boshkalarni urgatish zarur.

Davolashni 1-2 xafta davomida foydasi bulmasa boshka dorilarni yukori dozada ishlatish kerak. Og'riqni 1 oydan ortik saklanishi jarayonning surunkali utishi yoki beldagi og'riqni notugri tashxislanganligidir. Shifokorga bemorni yana chukurrok tekshirish talab kilinadi.

BDRni konservativ davolashda asosiy dori vositalari kupgina karshi kursatmalar va nojuya ta'sirga ega. Shu sababli davolash uslubida dori vositalarni muloxazali, polipragmaziyasiz tavsiya etish zarur (Lixachev Ye.B. , Sholomov I.I. 2018). Shunday kilib, bel soxasidagi utkir og'riqlarni davolashda, NYaKD saylangan vositalar xisoblanadi.(Curatolo M., Boyduk N, 2001; Fadoughi A., 2014).

Ushbu guruxga keng ta'sir mikyosda yetarlicha dori vositalari mavjud, ular bir-biridan yalliglanishiga karshi faolligi va yarim ajralish davri bilan farklanadi. Kiska yarim ajralish davrli NYaKVlarga- ibuprofen, salitsilatlar, diklofenak, indomesatin, lornoksikam, ketoprifen, deksketoprofen; urta yarim ajralish davrli dorilarga- meloksikam, peroksikam, semkoksiblar kiradi(Curatolo M., Boyduk N, 2021).

NYaKD larni xar kaysi aloxida xolatlarga tanlash individual kutara olishiga, nojuya ta'sir doirasiga, xamda vositaning ta'sir davomiyligiga karab olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha NYaKD 10-14 kundan ortik tavsiya etilmaydi. Agarda yoysimon bugimlar va chanok-yonbosh suyaklar birlashmalari surunkali degeneratsiyasida maxalliy anestetiklar va kortikosteroidlar bilan blokadalar xamda manual davo muolajalarini tavsiya etish lozim.

Og'riq sindromi uzoq vaqt saklanishida va dorilar bilan blokadalar kiska vaqtli ta'siri bulganida radiochastotali denervatsiya xakida uylash zarur, ya'ni og'riqni 60% dan 80%gacha bemorlarda kamaytiriladi (Curatolo M., Boyduk N, 2019).

Kuclic og'riqli sindromlarda-bemorda tushush simptomi kuzaganida (chanoq a'zolari ishi buzilishi bulmaganida, ikkala oyoqda xarakat buzilishi va sezgi buzilishi bulmasa), to'shakga yotish tartibi va ogriqqa qarshi va NYaQD tavsiya etiladi.

Jarayon kamayganidan sung bemorlar oddiy xarakat faolligi oshirishga yordamlashuvchi davolash jismoniy mashklari tavsiya etiladi.

Agarda konservativ muolajalar yordam kilmasa, MRT da umurtqalararo disk churrasi xulosasini bersa operativ davo (mikrodisektomiya) tavsiya etiladi.

Utkir ildizli og'riqli sindromda muolajalar vaqtida umurtqa pogonasi bel soxasini yengillashtirishga erishish zarur. Bu 1-2-kundan tushak xolati tavsiya etilganida amalga oshadi.

Og'riqda kombinirlangan analgetik muolajalarni kupgina maxsus tibbiyot tashkilotlari kullashni tavsiya etadi: Butunjaxon Soglikni Saklash Tashkiloti, Amerika Og'riqlar Assotsiatsiyasi.

Kuchli og'riq vaqtida NYaKDDan boshkasi xamma vaqt xam uxshash analgeziya bermaydi, bu xolda markaziy ta'sirga ega analgetiklar ishlatiladi, ya'ni bunda og'riqning markaziy boshkarilishi kuprok ishonchlidir (Smeah W.L. 2004).

Xozirgi vaqtda urta va kuchli og'riqlarni yukotishda markaziy ta'sirli sintetik analgetik- Tramal (Serunental farmasevtik tashkilot) ishlatilmokda. Ushbu vositaning xakikiyligi ikki xil ta'sir doirasiga egaligidadir.

Uning bir kism molekulas antinoseptiv opioid retseptorlarini faollashtiradi (tramal maxsuloti ushbu retseptorlarga morfinga nisbatan 6 ming marta sust, demak uning narkogen ta'siri kam mikdorda), ikkinchi kism molekulas neopioidli og'riqqa karshi tizimni faollashtirib, serotonin va noradrenarinlarni sinapslarda kayta ushlanib kolishini ingibirlaydi. Noradrenergik va serotoninergik

neopioidli tizimni aktivlashtirib, tramal orka miya soxasida og'riq impulslerini yukotadi.

Xar kaysisining ta'sir mexanizmi sust bulib, lekin ularning yigini oddiy bulmasdan, analgezlovchi umumiy ta'siri kuchayishi kup mikdordadir. Tramalning rasman ikkala mexanizmi sinergizmi og'riqni yukotishda yukori ta'siri bilan boglikdir. Tramalning opiat retseptorlariga kam aktivlashtiruvchi bemorlarda nafas, kon aylanishi tuzilmalarini ishini susaytirmaydi, ich kotishi chakirmaydi, uzoq vaqt ishlatilganda dori vositalariga moyillik chakirmaydi. (A.A.Skoromes, N.V.Shulemova, S.V.Perfilev, D.I.Rudenko 2015).

Konservativ davolashda mikrosirkulyatsiyani yaxshilash va tukimalararo ishini kamaytirish uchun NYaKD bilan diuretiklarni vazoaktiv vositalar (venotoniklar) kushib ishlatiladi.

Juda kuchli og'riqlarda, boshka vositalar bilan og'riqlarni yukotib bulmasa balkim kiska vaqtli narkotik analgetiklar (tramadol100mg/kuniga) ishlatish mumkin. Bel yoki dumgaza radikulopatiyalarini statsionar sharoitda davolash usullaridan kortikosteroidlarni epidural yuborish keng qo'llaniladi (Smeal W.L. 2004).

Bemorning axvoli yaxshilanishi bilan fiziomuolajalar, ya'ni reflektorli mushaklar spazmini kamaytiruvchi (vakuum massaj, fonoforez, massaj). 3-5-kundan boshlab manual terapiya usullarini kushish mumkin, bu uz navbatida mushaklar spazmini kamaytiradi va umurtqa pog'onasi xarakat xajmini oshiradi. Umurtqa kanali toraygan bemorlarda ushbu muolajalar tavsiya etilmaydi. Konservativ davolash bel umurtqalari stenozni tufayli suyak-mushak og'riqlarida ta'siri kam kuzatiladi. Bunday xolatlarda bemorlarni neyrovizualizatsiya (KT, MRT) tekshirib, klinik ahamiyatga moliklarini operativ davolashga tavsiya etiladi.

Bemorlarni davolashda ogir yuk kutarishni cheklash zarur, venotonik vositalar, pentoksifillin 400mg/kuniga peroral yoki vena ichi infuziyasi (2%-5.0 ml) kilinadi. Agar kuchli og'riqli sindromlar bulganda, maxalliy anestetiklar va steroidli vositalar bilan epidural blokadalar kilinadi (Inycler D. L., Doggett D, Turkelson C, 2014).

Xirurgik davo (dekompressiya) konservativ muolajalar foydasi bulmaganda, shu bilan birga kuchli og'riqli sindromlarda va ot yoli ildizi zararlanishi sindromlarida, operativ davolash kursatmasiga aloxida diqqatni jamlash lozim.

Adabiyotlardagi ma'lumotlar buyicha, 0.3% bemorlar operativ davoga muxtoj buladi.

Operativ davoga tugridan-tugri kursatma bu orka miya va ot yoli ildizini utkir bosilishi tufayli chanok a'zolari ishi buzilishi, ikki tomonlama og'riq va falajliklar xisoblanadi.

Operatsiyaga nisbiy kursatma konservativ davoga karamay kuchli og'riq sindromini saklanib (3 oydan ortik) kolishidir.

Quyidagi xolatlarda xirurgik aralashuv tavsiya etiladi:

1. Ot yolining bosilishi natijasida pastki paraparez va chanoq a'zolari ishi buzilishi.
2. Pareznig ortib borishi
3. Konservativ davo yordam bermaydigan kuchli og'riqli sindrom.

Ya.Yu. Popelenskiy (2021) fikricha, xirurgik davolangandan sung 5% xolatlarda asoratlar kuzatilgan (gematoma, tromboflebit, meningit, yomon xolatli chandiklanish, operatsiyadan keyingi chanok a'zolari ishi buzilishi va boshkalar).

Bunda turli xil statistik ma'lumotlar buyicha, operatsiyadan keyingi asoratlardan 1-3%i yomon okibatlarga olib kelmokda.

Dorsopatiyalarni davolash muammosi tulik xal bulishidan xali uzoqda. Xozirgi vaqtda yangi dori vositalar ustida izlanishlar olib borilmokda. Shu bilan birgalikda fizioterapevtik usullar-elektron, magnitli, balchikli davolashlar rivojlanmokda.

Elektro- yoki fonoforez utkazish uchun ayrim farmakologik vositalarni ishlatish muximrok bulmokda. Xulosada shuni e'tirof etish lozimki, umurtqa pogonasi zararlanishlarida effektli davolashda turli guruxdagi vositalarni kombinatsiyalashni e'tiborga olish joizdir (M.V. Putilin).

Tekshirish usullari.

2.1. Klinik materiallar ta’rifi.

Izlanish Samarkand shaxar Tibbiyot Birlashmasi va Samarkand viloyat Nogironlar uchun mintakaviy reabilitatsiya markazida bajarildi. Bunda 168 ta bemor tekshirildi. Ularning barchasi statsionar sharoitida Samarkand ShTB nevrologiya bulimida davolandi, 84 ta bemor (asosiy gurux bemorlar) Reabilitatsiya markazda davolandi. Barcha kuzatuvdagidagi bemorlar ambulator kuzatuvda kuyidagi tashxis bilan : bel soxasi spondilogen radikulopatiyasi, 2014 yildan 2023 gacha bo’ldi.

Bemorning yoshi 17 yoshdan 60 yoshgacha tashkil etdi. Ulardan- 94 tasi ayol, foiz jixatdan - % ni va –74 tasi erkak, foiz jixatdan - % ni tashkil etdi.


Bemorlarni yoshiga va jinsiga karab ajratildi, 2.1 jadvalda kiritilgan.

2.1 jadval

Bemorlarni yoshiga va jinsiga karab ajratish

Jinsi	17-30 yosh		31-45 yosh		46-60 yosh		Jami	
	nisb	%	nisb	%	nisb	%	nisb	%
Erkak	34	10,1	68	20,25	46	13,7	148	44,05
Ayol	44	13,1	68	20,25	76	22,6	188	55,95
Jami	78	23,2	136	40,5	122	36,3	336	100

Barcha statsionar sharoitida muolaja olayotgan bemorlar ikkita bir xil guruxga, jinsiga va yoshiga ajratildi (Rasm 2.1): nazorat guruxi 168 (50.0%) ta bemorni (102 tasi kuchli og’riq sindromi bilan va 66 tasi urtacha og’riqli sindrom bilan) tashkil etdi. Ikkinchi asosiy gurux: bu xam 168 ta (50.0%) bemorni (102 tasi kuchli og’riq sindromi bilan va 66 tasi urtacha og’riqli sindrom bilan).



Rasm 2.1. bemorlarni guruxlar buyicha ajratilishi.

Bemorlarni utkazilgan muolja boskichlariga asosan ajratilishi. Jadval 2.2. da kursatilgan

Jadval 2.2.


Bemorlarni utkazilgan muolja boskichlariga asosan ajratilishi.

Davolanish utkazilgan joy	Birinchi gurux		Ikkinchi gurux		Jami	
	nisb	%	nisb	%	nisb	%
Samarkand ShTB shifoxonasi	168	50	168	50	336	100
Reabilitatsiya markazi	-	-	168	50	168	50
Ambulator-poliklinika	168	50	168	50	336	100


Statsionar boskichida nazorat guruxidagi bemorlar fizioterapevtik muolaja bilan bazis muolajalarni oldi. Asosiy gurux bemorlarga bazis davolanishda miorelaksant-Muflaxini-4mg m/o in'eksiyada № 10ta, keyinchalik tabletkada 4 mg dan, 3 marta№ kun kushildi.

Bundan tashkari og'riq sindromini kamaytirish uchun NYaKD- Dolak vositasi va IRT (ignarefleksliterapiya) ishlatildi.

Ikkinchi gurux bemorlar 2.2. rasdan kurinib turibdiki, 3 boskichli muolaja kursini olishdi.



2.2. rasm. Boskichli davolanish sxemasi.




Traditsion davolash

Muflexini 4mg m/o, keyin 4x3 dan 1marta/kuniga №30 tabletka; Dolak bilan paravertebral blokada; Ignarefleksliterapiya

2.3. rasm. Bemorlarni statsionar bosqichda davolanish usullarini guruxlarga ajratilishi.

Reabilitatsiya boskichida asosiy gurux bemorlar katnashadi. Davolanishni Samarkand viloyati reabilitatsiya markazida olib borildi.

Bu yerda davolash jismoniy mashkini mushaklar mutanosibligini sozlash uchun va maxsus kompleksli PIR(mushak pastizometrik reaksiyasi)ni, bundan tashkari kompleks davolanishga vibromassaj uchun SSM-M-3500 krovati muolajalari ta'sirini kurib chikdik (Rasm 2.4.).




Rasm 2.4. Reabilitatsion davolash boskichi sxemasi.

Ambulator boskichda davolashning ikkala guruxga xam olib borildi, ular yashash joyi poliklinikasida kuzatuv buldi.

Bu boskichda ikkala gurux bemorlarni kuzatdik.

Asosiy gurux bemorlari bu boskichda kompleksli muolaja olishdi. Bemorlar miorelaksantlardan muflaxini-4 mg dan 3 maxal va dolak 10 mg dan 2 maxal tabletkada 10 kun kabul kilishdi. Nazorat guruxidagi bemorlarga fakat monoterapiya: Dolak 10 mg, 2 maxal, 10 kun berildi.



2.5 rasm Ambulator boskichli davolanish sxemasi

2.2. Tadqiqot usullari

2.2.1. Klinik izlanishlar

Bemorlarni klinik tekshirishlar klinik-nevrologik izlanishlarni baxolashda bemorlarni klinik tekshirishlar kuyidagilarni uz ichiga oldi, ya'ni ularga bemorlar shikoyati, kasallik kelib chikishi, nevrologik uzgarishlar kursatkichlari, umumiy kabul kilingan uslub buyicha og'riq sindromlari kursatkichlari.

Anamnez yigishda kasallik kelib chikishi yoki ularni kechishiga ta'sir kiluvchi omillar inobatga olindi.

Bemorlarni kurik vaqtida biz tananing aloxida kislmlari va simmetrik soxalarini joylashishini – chanok, son, dumba buramalari, chanok-yonbosh bitishmalariga e'tibor kildik.

Bundan tashkari umurtqa pogonasi utkir usiklari joylashishi va umurtqaning funksional egilishi yoki skolioz bor-yukligiga xam e'tibor kildik.

Keyinchalik umurtqaning barcha soxalaridagi faol xarakatlarni tekshirdik, buni bemorning uzi bajardi.

Xarakatlarni barcha yunalishlarda: egilish, yozilish, yonboshga egilish, aylanishlarni, bir tomondan va boshka tomonga xarakat amplitudasini solishtirib e'tibor berdik. Bemorlarda kuzatiladigan barcha aktiv xarakatlar xajmini chegaralanganligiga, aloxida yunalishda bajarayotganida og'riqni bulishiga, umurtqaning barcha segmentlari va soxalari xarakatda katnashishini, simmetrik mushaklar taranglashuviga e'tibor kildik.

Biz og'riq sindromi xarakterini, xarakat va sezgi yetishmovchiligi kurinishidagi ildizli buzilishlarni, pay reflekslari saklanganliklari, chanok a'zolari ishi buzilishlari, bel umurtqalari xarakati uzgarishlari, skolioz va lordozlarga, segmentar tizimning og'riqliligiga, trofik va vegetativ uzgarishlarini urgandik.

Bundan tashkari statodinamik uzgarishlar tufayli og'riq sindromining joylashishi va xarakteriga diqqatni jalb etdik.

Barcha tekshiruvchilar chukurlashtirilgan klinik-nevrologik, ya'ni vegetativ sistemasi, xarakat soxasini, umurtqa pogonasi kiyshayishi va blokini, oyok va bel soxasi mushaklari trofikasi uzgarishlarini taxlillar kilindi.

Bemorlarni umumiy tekshirdan o'tkazganimizdan so'ng bel mushaklari kuchini baxolash uchun funksional sinamasi utkazildi, ushbu sinama standard zurikishli testli jismoniy mashklar bilan amalga oshirildi. Test utkazishda bemorni qorni bilan yotkizilib, kulini boshini orkasiga kuyib tanasini egish tavsiya etiladi. Gavdani egib ushlab turish vaqtini sekundomer yordamida sanaladi.

1 -1.5 dak – bel mushaklari rivojlanishi urtacha kursatkichda;

1.5-2 dak – yaxshi natija deb xisoblandi.

Ambulator boskichda ushbu funksional sinama xar ikki xaftada takrorlandi, davomiyligi 2 oygacha.

Bundan tashkari og'riq sindromi intensivligini un ballik vizual analogli shkala (VASH) bilan baxolandi, buni bemorning uzi tuldiradi.

Ushbu shkalada kogozda 10 sm gacha chizilgan bulakchalardan iborat bulib, bemorlar og'riq sindromining intensivligiga mos ravishda belgilaydi. Bunda 0-nuktasi og'riq yukligini, 10- nuktasi esa belda chidab bulmaydigan og'riq borligini bildiradi. Og'riq sindromi xarakteri og'riq sindromini baxolovchi - ifodalovchi daraja bilan: kuchli 7-10 ball, urtacha 5-7 ball, kuchsiz 0-5 ballgacha.

2.2.2. Paraklinik va instrumental (rentgenografiya, ENMG, KT, MRT) tekshirish usullari.

Asosiy paraklinik tashxislash usullariga biz kuyidagilarni ishlatdik: umurtqa pogonasi patologik jaroxatlarni aniqlashda ko'pgina ustunlikka ega bolgan elektroneyromiografiya, rentgenografiya, kompyuterli, computer tomografiyasi va magnit-rezonans tomografiya funksional tekshirishlarni qo'lladik.

Elektroneyromiografiya tekshirishiruvi-periferik nerv tizim kasaliklari tashxislash usullarida kuprok ma'lumotli xisoblanadi.

Bu usul elektrik potentsiallarni mushaklarda registratsiyasi orqali tekshiradi. ENMG klinik elektroneyrofiziologiya soxasi bo'lib, periferik nerv va mushaklarda elektrik faolligini tekshirish bilan bog'liq.

EMG tekshirish tekshirilayotgan mushak yuzasidagi teriga elektrodnlarni yopishtirib utkazildi. Bundan tashqari elektr toki ta'sirida nervlarni qo'zg'atish orqali mushaklarning faolligi xaqida ma'lumot stimulyatsion EMG ajratdik.

Shuni aytish joizki stimulyatsion EMG nerv impulslarini xarakat va sezgi tolalaridagi tezligini, periferik xarakt neyronlari zararlanish soxasini aniklaydi. Bemorlarni tekshirish (stimulyatsion elektromiografiya) Vengriyada ishlab chikilgan «biolayzer» Medicor ikki kanallik apparat bilan utkazildi. Katta boldir va kichik boldir nervlarini kuyidagi kursatkichlar orkali tekshirildi: xarakat tolalaridan impulsar utkazuvchanlik tezligi (IUTeff), sezgi tolalaridagi impuls utkazuvchanlik tezligi (SPIeff), maksimal va minimal M-javob amplitudasi faoliyatidagi xarakat birligi soni. Bu kursatkich umumiy kabul kilingan usul orkali aniklandi (Badalyan L.O., Skvorsov I.A. 1986).

IUTeff ushbu formula bilan aniklanadi:

$$IUTeff = R / Lp - Ld$$

IUTeff – IUT xarakat tolali nervlarda (mm/ms yoki m/s)

R – stimulyatsion nervdagi proksimal va distal nuktalar oraligi(mm).

Lp – proksimal nuktadagi nerv stimulyatsiyasi M– javob latent davri.

Ld – distal nuktadagi stimulyatsiyasi M– javob latent davri.

IUTeff nervlar sensor UX nervining nerv stvoli bir yoki ikki nuqtasidan stimulyatsiyasini registratsiyasiga asoslanib aniqlandi. Sensor o'tkazuvchanlik tezligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$IUTeff = R / L$$

IUTeff – sezgi nerv tolalaridagi impulsar o'tkazuvchanlik tezligi 1 sek/metrda

R- stimulyatsiya beruvchi va olib ketuvchi elektrodlar oraligi yoki ikkala stimulyatsiyalovchi elektrodlar oraligi mm da.

L– chaqirilgan sensor UX nervning latent davri.

M – javob –ChP mushak, nervning elektrik ta'siriga mushaklar xarakat birligini (XB) sinxron bushligining yigindisi xisoblanadi.

M-javob kursatkichlari yuzaki elektrodlar orkali ruyxatga olinadi va latent davrdagi chakirilgan potensial (ChP) tuzilishi, amplitudasi, davomiyliklariga e'tibor qildik.

M-javob amplitudasi izoliniyagacha bulgan negativdan to pozitivgacha «pik» chukkilar aniklandi. Supramaksimal stimulyatsiyada max M-javob amplitudasi yoziladi, tekshirilayotgshan mushaklar xarakat birligi javobi yigindisini, ularni sonini namoyon etadi. Max M- javob amplitudasi millivolt yoki mikrovoltlarda ulchanadi. Max va Min mushaklar M- javob amplitudasi kattaligi asosida takkoslab funksional xarakat birligi taxlil etildi. Xarakat birligi (XB) faoliyatining umumiy mikdori ushbu formula bilan aniklanadi:

$$n=A/a$$

n- mushaklardagi XB;

A- M-javob Max amplitudasi

a-M-javob Min amplitudasi

Tekshirish vazifasiga boglik xolida nerv sistemasini turli darajasi va soxasini kuzgatadi.

Umurtqa pog'onasi rentgenografiyasi. Umurtqa pog'onasi kasalliklarini tashhislashda rentgenologik tekshiruvlar alohida ahamiyat ahamiyatga ega. Tashhislashning standart usullariga rentgenografiyaning old-orqa, yonbosh, $\frac{3}{4}$ proeksiyalarda tasvirga olish va umurtqa pog'onasini maksimal egilishi va yozilishi holatidagi funksional spondilogrammalari kiradi.

Old-orqa rentgenografiya tasvirini olish uchun bemor orqasi bilan yotqiziladi, oyoqlar tizza va chanoq-son bo'g'imida bukiladi. Bu proeksiyadagi tasvirlar quyidagi patologik jarayonlar to'g'risida ma'lumot beradi:


- Displastik o'zgarishlar (umurtqa yoylari, dumg'aza kanalining bitmay qolishi, umurtqalardagi sakralizatsiya va lyumbalizatsiya holatlari, umurtqalar bo'g'im o'siqchalarining o'smay qolishi holatlari);

- Degenerativ - distrofik o'zgarishlar (umurtqa yoyi o'siqchalari bo'g'imlarining deformatsiyalanuvchi artrozi, umurtqa tanasining yon tomonga siljishi, umurtqa pog'onasining yon tomonga deformatsiyasi);

- Adaptatsion o'zgarishlar (yon osteofitlar, orqa o'siqlar va apikal-arkual bitishma neoartrozi).

Yon proeksiyadagi rentgenografiya tasvirini olish uchun bemor yonboshlatib yotqiziladi, markaziy nur tutami umurtqalar oralig'iga, umurtqa pog'onasi o'qiga perpendikulyar yo'naltiriladi.

Bu proeksiyada olingan tasvirlar orqali bel lordozi darajasi, umurtqa tanasining oldinga yoki orqaga siljishi, umurtqa tanalari orasidagi masofaning qisqarishi, umurtqa yoyi bo'g'imlari orasida tirqish mavjudligi to'g'risida ma'lumot olishimiz mumkin. Shuningdek adaptatsion o'zgarishlardan "halqasimon" umurtqa hosil bo'lishi, umurtqa tanalari orasida fibroz yoki suyak to'siqlar hosil bo'lishi kabi o'zgarishlarni ham bu proeksiyadagi tasvirlar ko'rsatib bera oladi.



$\frac{3}{4}$ proeksiyadagi rentgenografiyani o'tkazish uchun bemor yonbosh holatda yotqiziladi. Tasvir umurtqa strukturalariga qarama - qarshi tomondan olinadi. Tana rentgen stoliga nisbatan $15-30^\circ$ burchak ostida joylashtiriladi, umurtqaning bel-dumg'aza qismi qolgan segmentlariga nisbatan 45° burchak ostida joylashtiriladi. Bu tekshiruv orqali spondiloliz, ifodalangan spondiloartroz, neoartrozni aniq tashhislash mumkin.

Funksional rentgenografiyaning amaliyotga kirib kelishi bu usulni shu sohada ishlatilish imkoniyatini kengaytirdi va nostabillik to'g'risi-dagi tasavvurimizni ko'rsatib bera oldi. Bir qator bemorlarda kuchli ifodalangan klinik simptomlar bo'la turib, umurtqa tanasining siljishi tekshiruvlarda aniqlanmaydi.

Lekin bu siljish umurtqa pog'onasining maksimal yozilgan holatida aniq ko'rinishi mumkin. Bu holat umurtqa segmentining nostabilligini ko'rsatadi. Bu holatning asosida umurtqalararo diskning degenerativ o'zgarishi yotadi. Bu tekshiruv usuli shuningdek, umurtqa harakat segmenti (UHS) dinamiyasini ham ko'rsatib beradi.

Kompyuter tomografiyasi. Umurtqa kanalidagi patologik jarayonlar diagnostikasida asosiy paraklinik tekshiruv usuli hisoblanadi va boshqa usullardan bir qator ustunliklarga ega.

Umurtqa pog'onasi kompyuter tomografiyasi yordamida orqa miya strukturalari va ildizchalarining holatini, umurtqalararo disk churrasini aniq tashhislash mumkin.

Kompyuter tomografiyasi tekshiriluvchi ob'ektning bir tekislikdagi turli nuqtalaridan o'tuvchi rentgen nurlari energiyasini maxsus yarim o'tkazgich detektor orqali qayd etilishiga asoslangan. Olingan ma'lumotlar elektron hisoblash mashinasida (EHM) qayta ishlanadi va umurtqaning tekshiriluvchi qismi ko'ndalang anatomik kesimi tasviri shaklida ko'rsatib beradi. Umurtqalararo disk va umurtqa tanasi sathida tekshiruv kesimi-ning qadami 1-2 mm.ni tashkil etadi.


Kompyuter tomografiyasi tekshiruvi «Somatom A2»(SIEMENS) uskunasi yordamida o'tkazildi.

Umurtqalararo disk vizualizatsiyasi uchun 3 mm qalinlikdagi 3 yoki 4 kesma yetarli bo'ldi. Umurtqa tanasini tekshirish uchun 8mm qalinlikda kesma tasvirlar o'tkazildi. Umumiy kesma tasvirlar soni 20-25 tani tashkil etdi. Bunda rentgen nurining umurtqa pog'onasining bir sohasidagi umumiy miqdori 0,03 Gr.ni tashkil etdi. Tomografiya asosan, umurtqa pog'onasi bel qismining pastki uchta VL₃-VS₁ segmentida o'tkazildi. Kompyuter tomografiyasi (KT) nafaqat umurtqa kanali markazidagi patologik o'zgarishlar, balki ildizcha kanalidagi va umurtqalararo teshikdagi patologik o'zgarishlarni aniqlash imkoniyatini beradi.

KTning afzalliklari:

- lateral foraminal churrallarni aniqlashda mielografiyadan ustun turadi;
- diskning diffuz degenerativ bo'rtishini mahalliy bo'rtishi (churrasi) dan farqlaydi, MRT va rentgenogrammadan sekvestratsiyani yaxshiroq aniqlaydi,

umurtqa kanali va umurtqalararo teshikdagi osteofitlarni churralardan aniq farqlab beradi.



Disk churralarini aniqlashda KT kamchiliklari:

- faqat bel churralarini aniqlash mumkin;
- bo'yin va ko'krak umurtqalararo disk churralarida kam ma'lumot beradi;
- epidural kletchatka yomon rivojlangan bo'lsa bel churralari tasvirining

sifati yomonlashadi. L₅-S₁ disk churrasida ko'p tomograflarda kesmalar o'tkazib bo'lmaydi.

Magnit-rezonansli tomografiya (MRT) - hozirgi vaqtda tashxislashning eng ma'lumotli usuli hisoblanadi. MRT noinvaziv usulda bir necha invaziv usul birgalikda beradigan ma'lumotlardan ko'proq tekshiriluvchi soha to'g'risida



axborot beradi. MRT organizmga zarar yetkazmaydigan, umurtqa pog'onasining kattaroq qismini tekshirish mumkinligi, qarshi ko'rsatmalari kamligi (klaustrofobiya, yurak ritmining sun'iy boshqaruvchisi bo'lganda, ferromagnit implantantlar bo'lganda) singari afzalliklarga ega. Orqa miya, umurtqalararo disk, umurtqa kanali va paravertebral to'qima-

larni tekshirishda eng samarali tashhisot usulidir.

Magnit-rezonansli tomografiyani (MRT) «Magnetom Open Viva» («Siemens») apparatida quyidagi texnik sharoitda o'tkazildi: magnit maydoni kuchlanishi 0,2Tl, skanerlash qadami 4-7mm. Tekshirish T1 va T2 tartibda bajarildi, vaqt ko'rsatkichlari T1(TR= 680ms, TE=24 ms), T2da (TR=4000ms, TE=117 ms).

Umurtqa pog'onasi bel-dumg'aza qismini tekshirish skanerlash qadami 5mm bo'lgan sagittal kesmalardan boshlab o'tkazildi. Keyin esa bizni qiziqtirgan umurtqalararo disk joylashgan umurtqa segmenti tekisligida transversal kesmalar o'tkazildi. Transversal skanerlash qadami umurtqa tanasi sohasida 7 mm, umurtqalaro disk sohasida 4 mm. Magnit-rezonansli tomografiya natijalarini tahlil etishda aksial (ko'ndalang) kesmalarni baholash muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan shu kesmalar tasvirida churraning joylashish turi (orqa-yonbosh, yonbosh, o'rta, paramedial), o'lchami, uning umurtqa kanalini qanchalik qoplaganligi, dural xaltani bosilganligini aniqlash mumkin.

SPONDILOGENLI BEL SOXASI RADIKULOPATIYALARINING KLINIK NEVROLOGIK KO'RINISHLARI.

3.1.Klinik ma'lumotlar ta'rifi


Nevrologik kasalliklar tuzilishida umurtqa zararlanishining turli xil nevrologik kurinishlari yetarli urin egallaydi va bir gurux klinik sindromlar bulib, patogenetik jixatidan reflektorli, kompression, mioadaptiv faktorlari bilan sezgi, xarakat, vegetotrofik tomir buzilishi va og'riq sindromlari bilan namoyon buladi.

Ushbu muammoning dolzarbligi umurtqa pogonasi bel-dumgaza soxasida ildizli og'riqlarning kuchliligi bilan va turgun kurinishdagi xarakat uzgarishlari, xamda chanok a'zolari faoliyati buzilishi bilan boglanganligidadir.

Biz bemorlarni rehabilitatsiyaning turli boskichlarida urganib chikdik. Statsionarda bel soxasi vertebrogen radikulopatiyasi bilan 336 ta bemor kuzatdik. Tekshirilgan bemorlar 132(33%)da reflektorli-tonik sindromi 184(55%)ida ildizli sindromi, 20 (6%)ida kompression-ishemik sindromi tashxisi kuyildi.

Barcha bemorlar og'riqning turli kurinishida va kuchlilik darajasidan shikoyat kildi.


Bunda biz og'riq sindromi kuchlilikini vizual-analogli shkala (VASH) bilan anikladik: kuchli 7-10 ball, urtacha 5-7 ball, kuchsiz ifodalanganligini 0-5 ball deb baxoladik.



Rasm. 3.1. Bemorlarni klinik sindromga karab ajratish

Klinik kurinishi umumiy kabul kilingan usul buyicha baxolandi.

Og'riqning intensivligi buyicha 204 bemorda kuchli orgikli sindrom, 122 ta bemorda urtacha og'riqli sindrom kuzatildi(3.2. rasm).



3.2. rasm Og'riq sindromining intensivlik darajasiga karab

bemorlarni ajratilishi.

Kompleks tekshirishlar natijasida biz quyidagilarni anikladik.

Rarikulopatiyalarning klinik kechish ko'pchilik holatlarda ildizli va compression ishemik sindromlar mushak tonik sindromi bilan qo'shib keladi.

Reflektorli og'riqli sindromlar: mushak-tonik va ildizli sindromlar bel soxasida og'riq, umurtqa deformatsiyasi, xarakatining cheklanishi, mushaklar spazmi bilan, palpatsiyada og'riqli nuqtalari bilan ta'riflandi.

Agar patologik jarayonga dumba mushaklari va sonning orka yuzasi kushilgan bulsa og'riq oyoklarga uzatiladi, buni ayrim vaqtlarda ildizli zararlanishi deb baxolandi. Bunda xakikiy Lasseg simptomi kuzatilmadi.

Ildizli og'riqlar tekshiruvchilardan 184 tasida (55%) o'tkir lyumbago bilan bel-dumg'aza soxasida boshlanib va ularda ildizli ko'rinishlar L4-L5 yoki L5-S1 segment soxalari umurtqalararo disk churrasi (kupincha bir tomonda) ko'pincha bog'liq xolda rivojlanib, klinikasining zo'rayishi og'riqni oyoqlarda tarqalishi bilan bo'ladi.



S1 soxada zararlanish bulganida og'riq tovon bilan yurganda, L5 soxada zararlanish bulganida esa, og'riq oyoq panjalari bilan yurganda yuzaga keldi.

Ildizli radikulyar sindromda og'riq bilan birga tovon va boldir mushaklarida kuchsizlik, nervning bosilishi simptomi (uyushish, «chumoli o'rmalashi» xissi) kuzatiladi.

Kompression-ishemik sindromi bilan 20 ta (6%) bemorda og'riq sindromi va ildizning tushish simptomlari bilan ajralib turdi.

L4 segment kompressiyasida og'riq juda kuchli bulmagan kurinishda bulib, sonning ichki yuzasidan to boldirgacha va bir kancha pastga berildi. Sezgi buzilishi kamrok kurinishda bulib, kupincha sonning oldingi yuzasida kuzatildi. Turt boshli mushak soxasida gipotoniya, gipotrofiya va tizza refleksining pasayishi kuzatiladi.

L5 segmenti soxasi kompressiyasida og'rik beldan dumbaga, sonning tashki yuzasiga, boldirning oldingi-tashki yuzasidan to tovonning ichki yuzasi va ko'pincha birinchi barmoqqacha beradi. Ushbu sohalarda ko'proq distal dermatoma sohasida gipesteziya, oldingi katta boldir mushagida gipotoniya va atrofiya kuzatildi.

S1 segmenti soxasi kompression sindromi bilan og'rigan bemorlarda og'riq dumbadan yoki beldan sonning orqa yuzasiga, boldirning tashqi yuzasiga va 4-5 oyoq panjalari tashqi yuzasiga, ayrim vaqtlarda kichik barmoqqacha, hamda og'riq oyoq kaftining tashqi tomonlariga tarqaldi. Bemorlar oyoq uchida turishga qiynaldi. Axillov va oyoq kafti refleksi pasaydi yoki chaqirilmadi (3.1 jadval).

Biz tomondan o'tkazilgan semiologik tahlilda bel-dumg'aza soxasi radikulopatiyalarining eng ko'p uchraydigan simptomlari bu «xoshiyasimon» og'riq bo'lib, 204 ta bemorlarda o'q otuvchi ko'rinishda kuzatildi.

Barcha bemorlarga reabilitatsion tadbirlardan oldin bel mushaklari kuchini baholash uchun funksional sinamani, aloxida ko'rinishdagi jismoniy mashqli standart zo'riqishlar bilan o'tkazdik. Bemorlarda bel mushaklari kuchini baholash uchun test o'tkazildi, bunda bemorlarni qorin bilan yotqizib ikkala qo'lini boshini orqasiga qo'yib, gavgdani egish tavsiya etildi. Gavdgani ushlab turish natijalari sekundomer yordamida o'lchandi. Barcha bemorlarda qoniqarli ko'rsatkich (1 daqiqadan 1.5 daqiqagacha) kuzatildi.

Bel-dumg‘aza radikulopatiyalarda asosiy
klinik simptom va sindromlar

Klinik simptomlar	Bemorlar n=168	
	Nisbiy	%
Og‘riqning VASh buyicha kuchligiga:		
- kuchli 7-10 ball	408	60,7
- urtacha 5-7 ball	264	39,3
- sust 0-5 ball	0	0,0
Paravertebral nuktalar buylab paypaslanganda og‘riq:		
- bir tomonda	120	17,9
- ikkala tomonda	248	36,9
Belning uzun mushaklaridagi maxalliy og‘riq	672	100,0
PR, AR refleksleri pasayishi	368	54,8
PR, AR refleksleri yukolishi	40	6,0
Mushaklar kuchining kamayishi	208	31,0
Sezgi buzilishlari:		
- gipesteziya	368	54,8
- paresteziya	40	6,0
Tortilish simptomlari:		
- kuchli musbat	408	60,7
- urtacha musbat	264	39,3
- kuchsiz musbat	0	0,0
Bel umurtqalari xarakatchanligi:		
- sustlashgan	280	41,7
- kuchli cheklangan	400	59,5
Chanok a‘zolari faoliyati buzilishi	44	6,5
Vegetativ-trofik buzilishlar	608	90,5

Klinik namuna: Bemor S., 49 yosh. Kasallik tarixi № 4152, tarbiyachi.

Shifoxonaga 8 may 2020 yil kuyidagi shikoyatlari bilan yotkizildi: bel soxasidagi simillovchi og'riqdan, og'riqni chap sonning va boldirning orka tashki yuzasiga berilishidan, yurganda chap oyogida uyushish, peshob chikishining tezlashishi kuzatilishi.

Anamnezidan bemor bel soxasidagi og'riqdan 6 yildan buyon ogriydi, usha vaqtda tusatdan chap oyogi tashki yuzasida tortishib og'riq paydo bulgan. Bemorning aytishicha, yashash joyi nevrologi bilan maslaxatlashgan.

Ambulator davolangandan sung bemorning axvoli nisbatan yaxshilangan, og'riq kamaygan. 2019 yil davomida bemorni og'riq tez-tez bezovta kilib turgan. Og'riq zurligidan bemor yurishi kiyinlashgan. Ushbu og'riqlar 2019 yil noyabr oyining boshidan kuzatilgan. Og'riqni chap oyogiga berilishi 2019 yil dekabr oyi oxirlarida bulgan. Oxirgi vaqtlarda bemor 700-800 metr piyoda yurganida chap oyogida og'riq kuchayib, yomon sezgilar, ya'ni igna sanchishi va chumoli yurgandek bulishi, peshob kistashi xissi paydo buladi. Ushbu xolatlarga karamay bemor yurishni davom ettirganida oyogi ogirlashib kolgan. Bemor xarakatni tuxtatib, 5-10 min utirganidan sung azoblanish xissi va kuchsizliklar utib, bemor yurishni davom ettiradi.

Ob'ektiv kurganda: bemor shifoxonaga kelganda umumiy axvoli nisbatan konikarli. Ichki a'zolar tomonidan uzgarishlar aniklanmadi. AKB 120/80 mm.sim.ust., puls 80ta/min. Peshob va ich kelishi me'yorda. Asab soxasi: kalla suyagi uzgarishsiz. Umurtqa pogonasi bel soxasi lordozi silliklashgan. Umurtqa pogonasi bel soxasi xarakati oldinga va chapga cheklangan. Meningeal belgilari yuk. Bosh miya nervlari uzgarishsiz.

Xarakat soxasi. Anik parezlar yuk, tonus chap oyok boldir mushaklarida pasaygan, chap oyok boldir mushaklarida atrofiya.

Muvozanat.Rombergning sinovida turadi. Barcha kordinator sinamalarni bajaradi.

Reflekslari: pay reflekslari kullarida D=S, oyoklarida, tizza, axillov va oek kafti soxasida sust D S. Patologik reflekslar chakirilmadi.

Sezgi soxasi. Palpatsiyada bel umurtqasi chapdan paravertebral nuqtalari og'riqli, shu soxada mushaklar taranglashgan. Lasseg chapdan 60°, undan 90°. VASh buyicha og'riqni kuchliligi 7-8 ballga teng. Chap oyok orqa tashki yuzasi soxasi og'riq monogipesteziyasi. VAS. Dermografizm kizil tarkok. Umumiy gipergidroz. Chanok a'zolari faoliyati buzilmagan.

Dastlabki tashxis. Shikoyatlari buyicha (chap oyok tashki yuzasida tortilib ogrishi, L5-S1 umurtqalar soxasida davriy ravishdagi tumtok og'riq), anamnezidan (kasallikni asta-sekin rivojlanib borishi), ob'ektiv tekshirish asoslari (chap chanok-son bugimi soxasida xarakat cheklanganligi, bel soxasi lordozi silliklashganligi) buyicha taxmin kilish mumkinki, bemorda dastlabki tashxis: Diskogenli bel soxasi radikulopatiyasi, ikkilamchi ildizli og'riq sindromi. Umurtqalararo disk chapdan L4-L5, L5-S1 churrasi.

3.2. Tekshirilgan gurux bemorlardagi spondilogenli radikulo-patiya nevrologik kurinishlarini klinik neyrovizualizatsion kurinishlari fenomeni taxlili.

Umurtqa pogonasi tarkibiy uzgarishini urganish bilan, klinik uzgarishni ma'lumotlarimiz bilan solishtirdik. Umurtqa pogonasida klinik tekshirishlar, rentgenologik tekshirishlar, ENMG tekshirishlar, KT va MRT tekshirishlarini utkazdik.

Rentgenologik izlanishlar. Umurtqalararo disk degenerativ-distrofik kasalliklarida bemorlarni tekshirish zararlangan umurtqa soxasida funksional sinamani rentgenologik izlanishlardan boshlash kerak, buning natijasiga karab bemorlarda kelgusi tekshirish rejalari tuziladi.

Ushbu usul yordamida biz tomondan quyidagilar aniklandi: umurtqaning xolati, umurtqa suyaklaridagi patologik uzgarishlar, bundan tashkari umurtqa segmentidagi nosozlikni-umurtqalar 4-5 mm dan ortiq oldinga yoki orqaga siljishini. Umurtqa pog'onasi bel-dumg'aza soxasi rentgenogrammasida bel soxasi lordozi silliklashganligi, umurtqalar o'z o'qi atrofida rotatsiyasi, disklarning qiskarganligi, subxondrial yopuvchi qoplamani osteosklerozi, Shmorle churrasini, oldingi va orqa osteofitlarini, bel umurtqalari spondiloartrozlari aniqlandi.

Elektroneyromiografiya (ENMG) – tekshirishlari biologik ikki kanalli «biolayzer» Medicor (Vengriya) apparati yordamida olib bordik. Katta boldir va kichik boldir nervlari kuyidagi kursatkichlar asosida tekshirildi: xarakat tolalaridagi impulsar utkazuvchanlik tezligini (IUTeff), sezgi tolalaridagi impulsar utkazuvchanlik tezligini (IUTeff), M-javobini yukori va pastki amplitudasini, xarakatdagi xarakat birligi (XB) sonini.

IUTeff ni kuyidagi formula yordamida xisobladik:

$$IUTeff = R/Lp - Ld$$

Sensor utkazuvchanlik tezlikni kuyidagi formula bilan:

$$IUTeff = R/L$$

Xarakatdagi XBning umumiy sonini kuyidagi formula bilan:

$$N=A/a$$

Bizning ENMGdan olingan ma'lumotlarga kura reflektorli sindromni bemorlarda IO'Teff kursatkichi katta boldir nervida pasaygan. IO'Taff kursatkichi boshka sindromlarga nisbatan farkanmadi. M-javob amplitudasi reflektorli sindromda uzgarmadi.

Ildizli sindromli bemorlarda ENMG kursatkichlar taxlilida kuyidagi kursatkichlar aniklandi: afferent tolalarda IUT urtacha pasaydi, xarakatdagi XB soni ikki baravarga kamaydi, M-javob amplitudasi kamaydi.

Kompression-ishemik bemorlarda ENMG kursatkichlari taxlilida kuyidagi uzgarishlar aniklandi: M-javob amplitudasi boshka sindromlarga nisbatan 3 baravardan ortik kamaydi, XB soni xam aytarli darajada pasaydi, stimulyatsiya utkazilgandan sung kushimcha fibrillyatsion tulkinlar paydo buldi.

Jadval 3.2.

Katta boldir nervidagi turli xil klinik sindromlardagi

ENMG kursatkichlari:

Kursatkichlar	Reflektorli sindrom	Ildizli sindrom	Kompression-ishemik sindrom
IO'Teff(m/s)	36.8 $\pm$ 1.41	47.9 $\pm$ 1.73	45.0 $\pm$ 1.63
IO'Teff(m/s)	47.2 $\pm$ 1.69	44.1 $\pm$ 1.86	47.9 $\pm$ 1.72

A max(MKV)	4852 $\pm$ 196	2928 $\pm$ 115	1424 $\pm$ 55.9
A min (MKV)	18.3 $\pm$ 0.5	17.7 $\pm$ 0.4	22.7 $\pm$ 0.7
HB	265.6 $\pm$ 9.41	135.5 $\pm$ 6.65	68.5 $\pm$ 2.48

Izox: * - reabilitatsiyagacha boshka gurux ma'lumotlariga nisbatan ishonchli(*-R0.05, **- 0.01, *** - R0.001).

Magnitli-rezonans tomografiyasi. MRT – umurtqa pogonasi ustunini baxolash kuprok ma'lumot beruvchi usul xisoblanadi. Umurtqalararo disk xolatini (protruziya va churralarda) baxolashda amaliyotda almashtirib bulmaydigan usul xisoblanadi.

MRT «Magnetom Open Viva» («Siemens») apparati yordamida kuyidagi texnik sharoitda utkaziladi: magnit maydoni kuchlanishi 0.2Tk, skanirlash kadami 4-7mm. Tekshirish T1 va T2 tartibda bajarildi, vaqt kursatkichlari T1(TR= 680ms, TE=24 ms), T2da (TR=4000ms, TE=117 ms).

Barcha bemorlarda tomografiya sagital tekislikda bajarildi. Disk churrasi aniklangan soxalarni kundalang kesimda skanirlash utkazildi. MRT yordamida kanalining yumshok tukimalarini va ularning stenoz shakllantirishiga katnashganligini kurib baxoladik. 92% xolatlarda disk churrasi farqlashda, ya'ni yonma-yon umurtqalar tanasidan chikib turdi.

Diskning tarkibi 3mmgacha chikishi disk protruziyasi deb xisoblandi. Bunda protruziya va churrani anik chegaralash shartli ravishda bulib, fibroz xalka butunligini urnatishni tasvirlashni ilojisi bulmadi.

Disk churrasi yunalishini sagital va aksial kismlar bilan anikladik. Bundan tashkari 72 ta bemorda MRT orkali orka buylama egat va sarik boylam gipertrofiyasi okibatida umurtqa kanalining torayishi, xamda ularda osteofitlar tufayli yon usimtali bugimlar gipertrofiyasi aniklandi. Kanalning ulchami, oldingi-orka ulchami 12 mm va undan xam yoki kundalang ulchami 16 mm va undan xam kam bulganda stenozlashgan deb xisoblandi. MRT ni tugri izoxlashda muxim payti aksial (kundalang) kesmasi bulib, bunda churraning joylashish shaklini (medial, paramedial, orka-yon) uning ulchamini, umurtqa kanali egallagan maydonini dural xalka bosimi darajasini aniklash imkoni buladi.

20 ta bemorning sagital va aksial proeksiyalarda stenoz bilan birgalikda dural xalka bosimi va kisilgan soxa yog tukimasining yukolishi kuzatiladi. Barcha tekshirilgan bemorlarda MRT da disk churrasi turli ulchamda va joylashishda aniklandi.

Bemorlarlarimizni MRT tekshirganimizda umurtqalararo disk churrasi va degenerativ o'zgarishlari, markazlashgan churralar shu xolatlarda fibroz xalqaning yorilishi bilan umurtqa kanali o'lchami kamayishi, epidural yog tuqimaning kamayishi yoki yo'qolishi, bugimlardagi gipertrofik o'sishlar orqa buylama boylamlarining petrifikatsiyasi, orqa miya ildizining bosilishi va defomatsiyasi bilan tavsiflanadi. Umurtqa pogonasi degenerativ-distrofik kasalliklarida bemorlarda munosib tekshirish algoritmlari nafakat davolash maskanlari va bemorlar sarf-xarajatlarini kamaytiradi, balkim tashxislash jarayonini muvofiklashtiradi, bu esa bemorlarning davolash sifatini oshirishga olib keladi.

Kasallik tarixi № 2816 Bemor N. 1967 yilda tugilgan klinikaga 29 mart 2021 yilda kelgan. Kelgandagi shikoyatlari: bel soxasidagi og'riqqa, og'riqning sonning ichki yuzasidan boldir soxasiga berilishidan, umurtqaning qiyshayib qolganligiga.

Anamnezidan: bemor 3 yildan buyon bel soxasidagi og'riq bilan ogriydi. Bemorda 2021 yil fevral oyida jismoniy zurikishdan sung beldagi og'riq kuchaygan.

Kelganda bemorning umumiy axvloi konikarli, AKB 120/80 mm.sim.ust., Puls ritmik 80ta/min. Ichki a'zolar uzgarishsiz. Asab soxasi: kalla suyagi uzgarishsiz, umurtqa pogonasi bel soxasi lordozi silliklashgan, xarakati og'riq tufayli cheklangan, og'riqlar beldan dumba soxasiga va chap son, boldirning tashki oldingi yuzasiga beriladi. Meningial belgilari yuk. KBMNIlari uzgarishsiz, anik parezlar yuk. Tonus chap oyogida pasaygan, chap oyok uch boshli mushagida atrofiya, pay reflekslari kullarida urta jonli, D=S, oyoklarda tizza D=S, axill refleksi chapdan sust. Patologik reflekslar aniklanmadi. Palpatsiyada bel umurkalari chapdan og'riqli, shu soxalar mushaklari taranglashgan. Lasseg chapdan 70°, chap oyok monogipesteziyasi. Xushi joyida, xotirasi saklangan.

Bemorda klinik bioximik kursatkichlar, umumiy kon va siydik taxlillari me'yorda. Bemorni ENMG tekshirganimizda M-javob amplitudasi juda pasaygan 1420 mkvga teng. XB soni 68.5 ga teng. Bu esa me'yorga nisbatan kup mikdoda past. Impulslar utkazuvchanligi me'yordan biroz uzgargan.

MRTda tekshirishda umurtqa pogonasi bel-dumgaza soxasi lordozi silliklashgan. Umurtqa uki frontal tekislikka nisbatan bir oz chapga kiyshaygan. Umurtqalararo disk tukimalarida urtacha degenerativ-distروفik uzgarishlar aniklanadi, xamda L4-L5 soxasida markaziy churra (chukurligi 9 mm, balandligi 14 mm, kengligi 13 mm) bulib, ostidagi umurtqaning $\frac{1}{4}$ balandligicha pastga kuchib, usha soxa dural xalkasi va ildizlarini bosib kuygan.

Umurtqa tanasi kirralari utkirlashgan. Orka miyaning terminal soxasi odatdagi tuzilishida va ulchamda, shakli tekis va anik.

Ot yoli – uzgarishsiz. Subxondrial bushlik patologik uzgarishsiz. Orka buylama boylam L4-L5 segment soxasida zichlashgan. Epidural tukima patologik tovushsiz. Umurtqa kanali L4-L5 soxasida ikkilamchi toraygan, L1-sagital kesmasi: L1-17mm, L2-16mm, L4- 16mm, L5-16mm soxalarida ushbu ulchamga ega.

Yoysimon o'siq bo'g'imlari sklerozlashgan.

Paravertebral yumshok tukimalar patologik tovushsiz.

MRT xulosasi: bel-dumgaza umurtqalari osteoxondrozi, L4-L5 soxa disk churrasi. Umurtqa kanali ikkilamchi stenozi. Spondiloartroz. Urtacha chap tomon skoliozi.

Shikoyatlari, anamnezi (kasallik asta-sekin rivojlanishi), bemorning ob'ektiv va paraklinik tekshirishlar (MRT, ENMG) asosida tashxisi: Bel umurtqalari diskogen radikulopatiyasi, kompression-ishemik sindrom bilan. L4-L5 umurtqalararo disk markaziy churrasi.

REABILITATSIYA BOSQICHLARI VA USULLARI

4.1. Medikamentoz, fizioterapevtik va refleksoterapevtik reabilitatsiya usullari.

Bemorlarni bel umurtqalari osteoxondrozi turli sindromlarini davolashda reabilitatsiyaning turli xil bosqichlarida patogenitik tiklanishli muolajalarni ketma-ket izchillik bilan olib borish muximdir.

Bizning bemorlarimizda tibbiy reabilitatsiyaga erishishda kasbining keyingi faoliyatini, xamda sotsial aktivligini xisobga olib, kompleksli tiklanuvchi muolaja usullari ishlab chikilgan va taklif etilgan.

Biz tomondan quyidagi reabilitatsion davo sxemasi taklif etildi:

Statsionar(nevrologiya bo'limi) - reabilitatsiya bulimi – ambulator-poliklinika muolajasi.

Bel soxasi spondilogen radikulopatiyasi bilan ogrigan bemorlarni statsionar boskichida davolanishning asosiy usuli bulib:

- 1) tinchlik, statodinamik zurikishlarni yukotish
- 2) klinik su'ratni shakllanishida katnashuvchi vertebrogen va ekstravertebrogen jarayonlar patologik uchogidagi proprio-, intero- va ekstraretseptori impulsatsiyalarga kompleks ta'sir etish.
- 3) davolash ta'sirini davriy ravishda va ularni boskichma-boskich olib borish.

Umurtqa pogonasi bel-dumgaza soxasi tulik yengillashtirish uchun, biz barcha bemorlarimizga tushak xolatini tavsiya etdik. Utkir davrida xar tomonlama davolash vositasi sifatida bemorni taxta ustiga yotkizish taklif etildi, bu og'riqni kamaytirishga yordam kildi. Umurtqaga tinchlik berish uchun bemor tushagi ostiga taxta yoki maxsus ortopedik tushak urnatdik.

Xarakat tartibini kuchli og'riqli sindromlarda-5-7 kun, o'rtacha og'riqli sindromlariga esa 3-5 kunga kamaytirdik, bundan tashkari biz kompleks patogenetik muolajalar:degidratatsiya, NYaKD, spazmolitiklar, antixolieesteraz vositalar, metabolizmni tiklovchi vositalar, V, RR vitaminlar va fizioterapevtik muolajalar kulladik.

Statsionar muolaja olayotgan barcha bemorlar jinsi va yoshiga karab bir xil guruxga bulindi: asosiy gurux 168(50%) ta bemor (102 ta bemor kuchli ildizli og'riq sindrom va 66 ta urtacha og'riqli sindromi bilan), ikkinchi guruxga xam 168(50%) ta bemor (102ta bemor kuchli og'riqli sindrom va 66 ta urtacha og'riqli sindromi bilan).

Barcha bemorlar dori vositalari bilan davolandi: NYaKD (diklofenak, ortofen, ksefokam, revmoksikam, movalis), antixolinesterazli vositalar (prozerin, galantamin, neyromedin), V gurux vitaminlari (neyromultivit, sianokobalamin), biostimulyatorlar (aloe, lidaza), kon tomirlar kengaytiruvchilar (pentoksifillin, agapurin, trental, nikotin kislota), fizioterapevtik (DDT, ultrafonoforez 4% li mumiyo bilan, massaj) muolajalar.

Barcha guruxdagi bemorlar yukorida sanab utilgan asosiy muolajalarni oldi. Asosiy gurux bemorlarga (168ta bemorga) davolashda Dolak bilan paravertebral blokada, miorelaksant - Midokalm, vakuum massaj va igna bilan davolash birgalikda olib borildi.

Tulik davolanishda bemorlarga blokadalarni kullash muxim urin tutdi, og'riq sindromini kamaytirishda paravertebral blokadalar utkazish mumkin, ya'ni bunda anestetiklar bilan birgalikda kortikosteroidlar (50 mg gidrokortizon, diprospan va boshkalar) kullash mumkin. Blokadalarda anestetiklar va kortikosteroidlarni uch kunda bir marta ishlatsa buladi, kupgina xolatlarda davolanish boskichida (kuchli og'riqlarni yukotishda) 3-4 ta blokada yetarli xisoblanadi.

Bel soxasi og'riq bulganida, unda dastlab og'riqni yukotib, sungra patogenetik muolaja boshlash kerak. Buning maxalliy paravertebral soxaga NYaKD bilan blokadalarni amalga oshirdik. Shu maksadda kompleks davolanishga biz NYaKV - dolak 1 mm-30 mg, paravertebral blokadalarga ishlatdik.

NYaKV - dolak bilan blokada og'riqqa karshi yalliglanishga karshi effekt mavjud. Muvofiklashtirilgan NYaKV – yalliglanish tipidagi og'riqlarda, selektiv SOG-2 ingibitorlariga nisbatan kuchlirok ta'sir kiladi.

Shu sababli bizning rejamizda og'riqni yukotishda Dolak (ketorolak) vositasiga kuprok kiritildi. Asosiy klinik soxasi bulib dolak vositasi kuchli analgetik ta'sirga ega ekanligidadir.

NYaKD ta'sir etishi yalliglanishni yukotishga yunaltirilgan bulib, bunda araxidonli kislota metabolizmi fermenti-siklooksigenazalar-2(SOG-2)ni yukotishga asoslanib, buni okibatida yalliglanishga karshi prostoglandinlar ishlab chikarilishi tuxtaydi. Prostaglandinlar orikli

nerv oxiriga ta'sir etadi. Nositseptorlarni og'riq sezgisini bradikininga sezgirligini oshiradi. NYaKD og'riq koldiruvchi ta'siri yalliglanishga karshi ta'siri bilan boglik bulib, yalliglanish uchogida tukimalar shishini kamaytiradi. Natijada nositseptorlarni mexanik bosilishini kuchsizlantiradi. Lekin prostaglandinlar sintezini tugridan-tugri yukotishi va analgetik aktivligi xaligacha aniklanmagan. Kupchilik NYaKD kup mikdorda kabul kilinsa yalliglanishga karshi ta'siri ortadi va kam mikdorda kabul kilinsa analgetik ta'siri ortadi.

Og'riq sindromini tezda yukotish bemorlarni kamrok vaqt tushakda kolishiga yordam beradi, shu sababli miofassial og'riqli sindromlarda asosiy gurux bemorlarga biz midokalm in'eksiya sifatida 100mgdan bir marta mushak orasiga 10 kun davomida kulladik, keyinchalik esa midokalm tabletkasini 150 mg dan kuniga uch marta 10 kun ichishga berdik. Midokalm markaziy ta'sirli miorelaksant bulib, tugridan-tugri analgetik ta'sirga ega.

Miorelaksantlarning davolavchi ta'siri orka miyadagi GAMKergik tizimini potensirlash xususiyatiga boglik, ya'ni tizimdagi kuzgatuvchi mediatorlarni tormozlab, spinal mono va polisinaptik reflekslarni yukotadi.

Buning natijasida mushaklar gipertonusining relaksatsiyasi kuzatiladi. Mushaklar spazmi yukotilishi bilan og'riq koldiruvchi ta'siri mujassamlanadi. Ushbu guruxda asosiy a'zosi bulib Midokalm xisoblanadi. U patalogik xalkani parchalashga yordam beradi (og'riq- mushaklar spazmi- og'riq) va umurtqa – xarakat tizimida moddalar almashinuvini yaxshilaydi.

Fizioterapiya og'riqli sindromlarni davolashda muxim urinda turadi. Kasallikning utkir davrida jismoniy omillar kullashni afzal kurmokda, ya'ni og'riq

koldiradi, regionar gemodinamikani yaxshilaydi, xususan, mushaklar spazmini pasaytirib, kompressiya soxasidagi koni okib ketishini yaxshilaydi. An'anaviy usulda davolash yaxshi og'riqsizlantiruvchi ta'sir beradi. Igna bilan davolashda keng miqyosda kombinirlangan davo: karporal akupunktura va aurikuloterapiya qo'llaniladi.

Radikulopatiyalarni davolashda buyrak, jigar, talok, oshkozon osti bezi meridianlari ishlatiladi.

Og'riqsizlantirish uchun og'riqli nuqtalarga quyidagilar ishlatildi:

Maxalliy-segmentar nuqtalar, V-23 men- shu, V-25 da – chan-shu, GB-30 xuan-tyao, GV-3 yao-yan-tuan-nuqtalar V40 vey-chjun va V60 kun-iun, V-62 shen-may, GV-26- Jen-chjun.

Umumiy ta'sirli nuqtalar ya'ni, ut xalta va jigar meridian nuqtalari og'riqli nuqtalarni tinchlantiradi: tonusini pasaytiradi F3- tiy-chun, F8- sgay- syuan, E36- szu-san-li, talok meridiani buyicha- oshkozon osti bezini ishlatdik. E 34- iyan-syu, E 40 – fen-iun, RP 3- tay-bay, RP 10- syuy-xay, V 59- fu-yan

Aurikulo muolajasi uchun AR 52 kuymich nervi, AR 40 umurtqa pogonasi bel soxalari nuqtalarini ishlatdik. Bir martali muolaja uchun umumiy nuqtalardan 5 tadan 10 tagacha ishlatdik. Nuqtalar buyicha retsept tuzdik va ignalarni 10 dak.ga sanchdik. Agarda kuzgalish sindromi ustun bulganida xamda kuchli og'riq sindromi yukotish uchun tinchlantiruvchi AP usulini ishlatdik, bunda nuqtalarga ta'sirlash yanada kuprok tus beradi. APning davolash boskichi 5 tadan 10 tagacha muolajani (yaxshi klinik ta'sirgacha) tashkil etdi.

Umurtqa mushaklari va biologik aktiv nuqtalarga stimulyatsiyasi uchun vakuum massaj kulladik. Bizning fikrimizcha, vakuum massaj vaqtida maxalliy kon aylanishlar faollanib, vegetativ nerv sistemasi aktivlanadi va mushaklar tarangligi pasayadi.

Bizni izlanishlarimiz shuni kursatdiki, asosiy gurux bemorlarimizda og'riq sindromi 116 ta(70%) bemorda kamaydi. Paresteziya 8 ta bemorda kamaydi. Tortilish simptomlari 70 ta bemorda kamaydi. Sezgining ildizli

tipida buzilishi 62 ta bemorda kamaydi. 36 ta bemorda boldir, son va dumba mushaklarida mushaklar tonusi oshdi.

Yukorida aytib utilgan Roland-Morris surovnomasi buyicha kurganimizda davolanishdan oldin 10 ta savolni belgilagan bulsa, davolashdan sung uchta savolni belgiladi. Bemorning axvoli 7 ta savolga yaxshilandi, ya'ni 70%ini tashkil etdi. Shunday kilib, taklif kilingan surovnoma utkir va surunkali og'riqlarda ancha kulay xisoblanadi.

Jadval 4.1

Bel-dumgaza radikulopatiyasi bilan ogrigan bemorlar reabilitatsiya boskichidagi asosiy klinik simptom va sindromlari

Klinik simptomlari	Statsionar bosqich (n=336)				Reabilita-siya bosiqich (n=168)		Ambulator bosqich (n=336)			
	1 gurux (n=168)		2 gurux (n=168)				1 gurux (n=168)		2 gurux (n=168)	
	Ol-din	Ke- yin	Ol- din	Ke- yin	Ol- din	Ke- yin	Ol- din	Ke- yin	Ol- din	Ke- yin
VASh og‘riqning kuchliligi: - kuchli 7-10 ball.	102	32	102	42	32	0	0	0	42	6
- o‘rtacha 5-7 ball.	66	20	66	28	20	6	6	0	28	8
- kuchsiz 0-5 ball.	0	12	0	16	12		14	8	16	28
Ildizli og‘riqlar: - monoradikulyar	30	10	30	14	10	2	2	2	14	10
- biradikulyar	62	20	62	26	20	14	14	6	26	26
Belning uzun mu- shaklari tarangla- shuvi	168	52	168	68	52	6	6	0	68	14
- pay reflekslari pasayishi PR, AR	92	28	92	38	28	4	4	4	38	10
-Pay reflekslarining tushishi PR, AR	12	4	8	6	4	4	4	4	6	6
- mushaklar kuchi- ning pasayishi	50	14	54	22	14	2	2	2	22	14
- gipesteziya	92	24	52	38	24	4	4	4	38	14
- paresteziya	12	4	8	6	4	4	4	4	6	6
Tortilish simptom- lari: -juda musbat	102	4	102	18	4	0	0	0	18	6
- o‘rtacha musbat	66	20	66	28	20	6	6	0	28	8
-kuchsiz musbat	–	28	–	24	28	10	10	6	24	24
Bel umurtqalari ha- rakatchanliginingpasa- yishi:-pasaygan	72	22	68	28	28	8	8	6	28	14
- qat’iy cheklangan	92	28	104	42	22	6	6	0	42	6

Chanoq a'zolari funksiyasini buzilishi	12	4	10	6	4	4	4	4	6	6
Vegetativ-trofik buzilishlar	152	46	152	62	46	24	24	16	62	42

Roland-Morris surovnomasi bel soxasidagi og'riqlar tufayli funksional cheklanishlarni aniklashda kulay, ishonchli va amaliy surovnoma sifatida ta'rif etilmokda. Biz uni shifoxona va reabilitatsiya boskichlarida davolanayotgan bemorlarning muolajasi samarasini aniklashda ishlatishni tavsiya etamiz.

Tekshirishlar shuni kursatdiki, davolanishning umumiy samaradorligi ikkinchi gurux bemorlarda kuchli og'riqli sindromi bilan 120 ta va urtacha og'riqli sindromi bilan 76 ta (59%) ta bemorlarni tashkil etdi. 108 ta(32%) bemorlarda og'riqli sindromni davolanishdan sung (nepreterpel sushchestvennyx izmeneniy) yetarli uzgarishsiz koldi. 12 ta (8%) bemorlarda ob'ektiv uzgarishlar ruyxatga olinmadi.

Shunday kilib, asosiy gurux bemorlarda umumiy davolanish samarasi 70%ni(140 ta bemorda kuchli va 92 ta bemorda urtacha og'riqli sindromi bilan) tashkil etdi. 8 tasida (3%) ob'ektiv uzgarishsiz koldi. Bemorlarimizda vaqtincha ishga layoqatsizlik ko'satkich davolanishdan so'ng ikki hissadan ortiq kamayganligi o'z isbotini topdi. Ayrim bemorlarimizda yil davomida kuzatishimiz shunu ko'rsatdiki, mahnatga layoqatsizlik tolaligicha tiklandi.

Reabilitatsiya davolanish boskichi. Umurtqa pogonasi spondilogen radikulopatiyasi bilan ogrigan bemorlar reabilitatsiyasi zamonaviy ishlab chikilgan muolaja usullariga karamay murakkab tibbiy ijtimoiy muammo bulib kolmokda. Bu spondilogen radikulopatiyalari surunkali residivlanuvchi kasallik bulib, nogironlikka olib kelayotganligi bilan boglikdir. Xar bir konservativ davolash va reabilitatsiya boskichlarida buladigan uzgarishlari va tiklanishli davolanishlar samaradorligini

baxolab borib, ushbu kasallik bilan ogrigan bemorlar uchun mos ravishda aloxida tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya dasturini ishlab chikish zarur.

Reabilitatsiya boskichida asosiy gurux bemorlar katnashdi.

Davolanishni Samarkand viloyati nogironlar uchun tibbiy ijtimoiy reabilitatsiya markazida olib borildi. Bu yerda davolash jismoniy mashki va

mushaklar nomunosibligini muvofiklashtiruvchi maxsus uygunlashgan PIR (mushaklar pastizometrik relaksatsiyasi) xamda uygunlashgan davolanishga vibromassaj CGM-M3500 krovatini ishlatdik.

Shifoxona muoalajalarini olib bulgan asosiy gurux bemorlarga keyingi davolanish boskichini utkazdik. Bizning oldimizda kuyidagi maksadlar turadi: jismoniy reabilitatsiya usullari samaradorligini va ularni butun tayanch-xarakat soxasiga, butun organizmga tulik ta'sirini urganish, xamda mushaklar pastizometrik relaksatsiyasi ob'ektiv kriteriyalarini reabilitatsiya davrida ishlab chikish va reabilitatsiya dasturini tuzish.

Ushbu maksadga erishish uchun kuyidagi asosiy muammolarning yechish kerak edi: konservativ davo va uygunlashgan (kompleks) reabilitatsion tadbirlar ishlab chikish, ya'ni zararlangan umurtqaning faoliyatini tiklashga karatilgan bel mushaklarini mustaxkamlash va zararlangan umurtqalararo diskni tiklash, binobarin davolash va reabilitatsiyaning asosiy maksadi umurtqaning kelajakdagi faoliyati buzilishini ogoxlantirish. Utkir davrda davolash og'riqni koldirish, reabilitatsiya davrida esa bemorning faolligini oshirish, umurtqaning keyingi faoliyati buzilishini va kayta xurujdan ogoxlantirish.

Ushbu zararlanishlarda jismoniy mashklar bilan davolash kuprok foydali va yaxshidir. Mashklarni kullashda 3 ta turli xil va uzaro boglikli maksadni nazarda tutildi:

a) umurtqaning buzilgan faoliyatini yaxshilash

b) beldagi og'riq simptomlarini kamaytirish

v) og'rik xakida xaddan ortik bezovtalanish va juda xam extiyotkoro-naligini kamaytirish yuli bilan mehnatga layokatsizligini pasaytirish. Jismoniy mashklar skelet-mushak va yurak-kon tomir tizimi faollik xolatini yaxshilaydi va ushlab turadi va ular bemorlarning umurtqa faoliyatini yaxshilashda foydali bulishi mumkin. Jismoniy mashklar umurtqa pogonasi bel soxasi spondilogen radikulopatiyalarni davolashda va profilaktikasida muxim usullar xisoblanadi.

Biz kompleks davolash mashklarini utkazdik, ya'ni: chiniktiruvchi, kuch beruvchi mashklar va mushak-bugim soxasini mustaxkamlantiruvchi mashklar.

Professor V.V. Povoroznyuk uslubini xisobga olib bemorlarimizga bir necha mashklarni moslashtirdik va utkazdik.

Dastlab bemorlar tayyorlanuvchi mashklarni urgandi.

№1 Mashk. Bemor chalkanchasiga yotadi, tizzalar bukiladi, tovonlar polning ustida bulib chanok soxasini kutaradi. Belni polga bosadi, oyoklarni zuriktirmaydi, ushbu xolatda 5 sek turadi. 10 marta kaytariladi.

№2 Mashk. Bemor chalkanchasiga yotadi, tizzalar bukiladi, tovonlar polning ustida, sungra tizza bugimlari kukrakkacha kutariladi. Tizzani kukrakka olib kelib 10 sek ushlab turiladi. Avvalgi xolatga kaytiladi va boshka oyok 5 marta almashinib kaytariladi. Mashk bajarilishini murakkablashtirish uchun dastlab bir oyokni kukrakka olib kelinadi, sungra ikkinchi oyokni olib kelinadi. Ushbu xolatda ushlanadi. Barcha xolatlar kaytariladi.

№ 3 Mashk. Korin bilan yotish, tirsakka turish- korin bilan yotish butun tanani tirsak bugimi yelka va son bilan kutarish. Belni 3-5 dakika davomida bushashtirish,

№4 Mashk. Korin bilan yotib- polga tiralish- yelkaga zurikish berib, poldan kullar bilan tiralib turish. Kulni tugrilab, gavdaning yukorigi kismini sekinlik bilan kutarish, sonlarni polga tirash. Ushbu xolatni sek ushlab turish. 10 marta qaytarish.

Ikkinchi kism. Muvozanatni saklagan xolda kuch beruvchi mashk.

